

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**BUXORO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**BUXORO VILOYATINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2023- YIL
YANVAR-SENTABR**

Buxoro - 2023

SO‘Z BOSHI

Buxoro viloyatining statistik axborotnomasi Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Buxoro viloyati statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2023- yil yanvar-sentabr oylari yakunlari bo‘yicha Buxoro viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar birinchi marta Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (2- tahrir) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT-2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, Yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya’ni, Yalpi hududiy mahsulot hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek, Yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Statistik axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, demografik holat va bandlik to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar keng yoritilgan.

Qisqartma va shartli belgilar

YAHM	-	yalpi hududiy mahsulot	0,0	-	katta bo‘lmagan miqdor
%	-	foiz	m.	-	marta
mlrd.	-	milliard	-	-	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.	-	million	ga	-	gektar
mln. AQSh doll.	-	million AQSh dollari	t	-	tonna
kv.	-	kvadrat	dona	-	dona
km	-	kilometr	yo‘lovchi/km	-	yo‘lovchi-kilometr
m	-	metr	1), 2), 3)	-	izohning mavjudligi
f.p.	-	foiz punkt	f.d.	-	foiz daraja


MUNDARIJA

Nomi	bet
ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR	6
BUXORO VILOYATINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BILAN SOLISHTIRMA ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI	7
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH	8
II. SANOAT	15
III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI	31
IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH	51
V. XIZMATLAR	74
VI. TRANSPORT	87
VII. ISTE'MOL BOZORI	98
VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT	106
IX. KICHIK TADBIRKORLIK	120
X. KORXONA VA TASHKIOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	137
XI. KORXONA VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI	147
XII. DEMOGRAFIK HOLAT	163
XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	176

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2023 yil yanvar-sentabr</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foizda</i>
Yalpi hududiy mahsulot	<i>mlrd.so'm</i>	37 088,7	104,3
Sanoat mahsuloti	<i>mlrd.so'm</i>	22 132,3	106,0
Iste'mol tovarlari	<i>mlrd.so'm</i>	4 389,7	107,1
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	<i>mlrd.so'm</i>	26 568,5	103,7
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	<i>mlrd.so'm</i>	18 718,0	106,6
Qurilish ishlari	<i>mlrd.so'm</i>	6 771,4	102,9
Yuk aylanmasi	<i>mln. tn-km</i>	1 710,4	102,7
Yo'lovchi aylanmasi	<i>mln. yo'lovchi-km</i>	7 334,5	101,5
Chakana tovar aylanmasi	<i>mlrd. so'm</i>	11 399,2	104,7
Xizmatlar, jami	<i>mlrd. so'm</i>	13 726,3	109,3
Tashqi savdo aylanmasi	<i>mln. AQSH doll.</i>	894,6	103,8
Eksport	<i>mln. AQSH doll.</i>	223,9	105,9
Import	<i>mln. AQSH doll.</i>	670,7	103,1

**O‘zbekiston Respublikasi va Buxoro viloyatining
2023 yil yanvar-sentabr oylari asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari**



**O‘zbekiston Respublikasi va Buxoro viloyatining
2023 yil yanvar-sentabr oylari asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari**

	O‘zbekiston Respublikasi		Buxoro viloyati	
	mlrd. so‘m	2022 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da	mlrd. so‘m	2022 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
Yalpi ichki (hududiy) mahsulot	750 925,7	105,8	37 088,7	104,3
Sanoat mahsuloti	459 919,7	105,7	22 132,3	106,0
Iste‘mol tovarlari	132 992,6	107,7	4 389,7	107,1
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	292 729,2	104,1	26 568,5	103,7
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	226 638,6	111,8	18 718,0	106,6
Qurilish ishlari	107 793,3	105,6	6 771,4	102,9
Chakana tovar aylanmasi	205 082,3	107,0	11 399,2	104,7
Xizmatlar (jami)	329 201,5	112,1	13 726,3	109,3
Eksport (mln. AQSH doll.)	17 739,4	123,5	223,9	105,9
Import (mln. AQSH doll.)	27 014,8	121,2	670,7	103,1

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yil yanvar-sentabr oylarida Buxoro viloyatining ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YAHM) ning hajmi 37 088,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022 yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 4,3 foizga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 4,9 foizga yetdi.




2022-2023- yillarning yanvar- sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari

		Mlrd. so'm		o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2022 yil	2023 yil	
	I. YAHM	32 152,0	37 088,7	104,3
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 646,5	35 539,1	104,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1 505,5	1 549,6	105,6
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 646,5	35 539,1	104,2
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	13 339,2	15 355,0	103,7
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	8 104,1	9 321,0	105,0
	sanoat	5 479,6	6 406,2	106,0
	qurilish	2 624,5	2 914,8	102,9

		Mlrd. so‘m		o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2022 yil	2023 yil	
	Xizmatlar	9 203,2	10 863,1	104,3
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2 452,0	2 736,8	100,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 665,2	2 027,1	109,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	5 086,0	6 099,2	104,6

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 18 339,9 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,6 foizga yuqoridir.

2022-2023- yillarning yanvar- sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘shish sur‘atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,8 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,2 foizini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 43,2 foizni, sanoat tarmog‘ining ulushi 18,0 foizni, qurilish sohasida 8,2 foizni va xizmatlar sohasi 30,6 foizni tashkil qildi.


**2022-2023- yillarning yanvar- sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**

		2022 yil	2023 yil
	I. YAHM	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	95,3	95,8
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4,7	4,2
	II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	43,5	43,2
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	26,5	26,2
	sanoat	17,9	18,0
	qurilish	8,6	8,2
	Xizmatlar	30,0	30,6
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	8,0	7,7
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,4	5,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	16,6	17,2




2022-2023- yillarning yanvar- sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


2022- yil




2023- yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,7 foiz (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi (43,2 foiz), sanoatda 106,0 foiz (18,0 foiz), qurilishda 102,9 foiz (8,2 foiz), xizmatlar sohasida 104,3 foizni 30,6 foiz) tashkil etdi.




2022-2023- yillarning yanvar- sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2023 yilga YAHM deflyatori indeksi 2022 yildagi narxlarga nisbatan 110,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida 113,2 foiz va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 111,0 foiz qayd etildi.

2022-2023- yillarning yanvar- sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2022-2023- yillarning yanvar- sentabr oylarida Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 25 993,3 mlrd. so'mni tashkil etib (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 22 856,0 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 73,1 %ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida –74,6 %).

Kichik tadbirkorlik-ning YAHMdagi ulushi-ning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Yalpi hududiy mahsulot – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

Aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot – muayyan davrda joriy narxlardagi Yalpi hududiy mahsulot hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo'shilgan qiymat – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) hamda ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

Mahsulotlar uchun soliqlar – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar hamda boshqalar kiradi.

Mahsulotlar uchun subsidiyalar – davlat budjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar).

Mahsulotlar uchun sof soliqlar mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.


Yalpi hududiy mahsulot fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati) doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri Yalpi hududiy mahsulotni (real Yalpi hududiy mahsulot), joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.

Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi - iqtisodiyotda narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal Yalpi hududiy mahsulotning (joriy narxlardagi hisobot davri Yalpi hududiy mahsulot) real Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.

II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan 2023 yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan hajmi 22 132,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsuloti fizik hajm indeksi 106,0 foizni tashkil etdi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, hajmi va fizik hajm indeksi



■ ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm. ■ o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi, foizda


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109,2 foizga o'sishi bilan birga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash bo'yicha 47,1 foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 169,8 foizni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish 101,5 foizni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	22 132,3	106,0
Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	282,4	47,1
<i>ulardan:</i>		
Tog'- kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat	92,6	105,7
Tog'- kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar	189,8	33,5
Ishlab chiqaradigan sanoat	20 868,2	109,2
<i>undan:</i>		
Oziq- ovqat ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	3 299,2	107,4
To'qimachilik, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlari ishlab chiqarish	4 623,5	108,7
Yog'och va po'kak buyumlar , poxol va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish	152,6	75,0
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	5,5	107,8
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	10 756,3	111,5
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	477,9	111,0
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	20,6	162,1
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	1 070,3	107,7

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘shish sur‘ati, foizda</i>
Metallurgiya sanoati	53,3	85,5
Mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, treylar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish	402,7	115,1
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	6,3	24,2
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	842,4	169,8
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	139,3	101,5

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)
(yanvar-sentabr)



	Ishlab chiqaradigan sanoat
	Tog'-kon sanoati va ochiq konlardan ishlashi
	Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
	Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda,

Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 282,4 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 foizni tashkil etdi.

Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog‘-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar 0,9 foizga ko‘paygan, tog‘-kon sanoati bilan bog‘liq boshqa faoliyat 0,4 foizga kamaygan.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

Buxoro viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20 868,2 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,3 foizni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan
natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2023 yil yanvar- sentabr</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan foiz</i>
Benzin	ming tn.	762,4	106,5
Dizel yoqilg‘isi	ming tn.	143,5	59,2
Mazut	ming tn.	43,4	69,6
Kerosin	ming tn.	140,5	162,1
Suyultirilgan gaz	ming tn.	34,3	106,1
Aroq	ming l. 100,0 foiz spirt	3 415,5	79,7
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	ming l. 100,0 foiz spirt	6,6	60,3

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2023 yil yanvar- sentabr</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan foiz</i>
Uzum vinosi	ming l.	168,0	76,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni	ming tn.	14,2	26,4
Tozalangan o'simlik yog'i	tn.	6 866,6	184,0
Paxta tolasi	ming tn.	49,8	110,0
Paxta (linti)	tn.	4 477,0	110,3
Paxta chigiti	ming tn.	78,7	121,2
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	ming tn.	26,3	100,9
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	tn.	395,6	86,4
Don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo'lgan kepak, chigit va boshqa chiqindilar	ming tn.	43,3	86,9
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	ming tn.	6,0	22,9
Chakana savdo uchun qadoqlangan paxtadan yigirilgan ip	tn.	10 113,2	117,5


Shu bilan birga, oxirgi 5 yilning tegishli davrlari mobaynida un mahsulotlari eng ko'p ishlab chiqarish 2020 yilning yanvar- sentabr oylariga to'g'ri kelmoqda (2019 yil-60,6 ming tonna, 2020 yil -68,4 ming tonna, 2021 yil – 64,3 ming tonna, 2022 yil – 53,7 ming tonna, 2023 yil – 14,2 ming tonna)

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish 2,4 marta ko'p, boshqa transpor tuskunali ishlab chiqarish 2,1 marta ko'p, elektr, gaz, bug' bilan ta'mirlash va havoni konditsiyalash 169,8 foizni, asosiy farmatsetsevtika mahsulotlari va priparatlari ishlab chiqarish 162,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish 133,0 foizni oshganligini kuzatish mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmog‘ining ulushi 0,1 foizni, o‘rta-yuqori texnologiyali 2,6 foizni, o‘rta-quyi texnologiyali 58,5 foizni, quyi texnologiyali 38,8 foizni tashkil etdi.

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik sub‘ektlari tomonidan 2023 yilning yanvar-sentabr oylarida 3 162,3 mlrd.so‘mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

**2023 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarishning
texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, foizda**



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 842,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,8 foizni) tashkil etdi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hamda bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash tizimi hajmining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 169,8 foizga ko‘payganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2023 yil yanvar-sentabr</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foiz</i>
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)	ming g.kal.	486,2	93,5

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 139,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 foizni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 101,5 foizga ko'payganligi kuzatildi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida 4 389,7 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2022 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 107,1 foizni tashkil etdi. Jumladan, 2299,8 mlrd.so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari va 2 089,9 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari (2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan mos ravishda 107,7 foiz va 106,5 foiz) ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida viloyat bo'yicha istemol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 4 389,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2022 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 107,1 foizlik o'sish taminlandi, jami sanoatdagi ulushi esa 19,8 foizga teng bo'ldi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


(2023 yil yanvar-sentabr)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish	4 389,7	107,1
shu jumladan:		
oziq-ovqat tovarlari	2 299,8	107,7
nooziq-ovqat tovarlari	2 089,9	106,5

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 2 299,8 mlrd.so‘mga yetkazilib, jami iste‘mol tovarlaridagi ulushi 52,4 foiz, jumladan, nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2 089,9 mlrd.so‘m, jami iste‘mol tovarlaridagi ulushi 47,6 foizni tashkil etdi.

Keyingi besh yilning tegishli davrlaridagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni taqqoslaganda, ushbu ko‘rsatkichning iste‘mol tovarlarining umumiy hajmidagi eng katta ulushi 2023 yilning yanvar-sentabr oylariga to‘g‘ri kelmoqda (2019 yil – 36,6 foiz, 2020 yil – 47,2 foiz, 2021 yil – 36,5 foiz, 2022 yil -34,6 foiz, 2023 yil – 52,4foiz).


Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, jami iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda
(yanvar-sentabr)



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Buxoro viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Buxoro viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p Qorovulbozor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 51,0 foiz ulushi), Buxoro shahri (10,3 foiz), G‘ijduvon tumani 6,5 foiz), Kogon tumani (5,8 foiz) hissasiga to‘g‘ri keladi.

**2023 yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab
chiqarish hajmidagi ulushi, foizda**




Hududlarning sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Olot (2022 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 114,8 foizga), Shofirkon (112,8 foizga), Peshko' (108,2 foizga) va G'ijduvon (106,0 foizga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.

Sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi
(2023 yil yanvar-sentabr)

	<i>Sanoat mahsulotlari, mlrd. soʻmda ¹⁾</i>	<i>2022 yil nisbatan, foizda</i>	<i>Iste'mol tovarlari, mlrd. soʻmda¹⁾</i>	<i>2022 yil nisbatan, foizda</i>
Buxoro viloyati	22 132,3	106,0	4 389,7	107,1
Buxoro sh.	2 288,4	101,2	1 002,0	93,6
Kogon sh.	722,3	101,4	188,4	92,7
<i>tumanlar</i>				
Buxoro	653,4	105,2	154,1	98,7
Vobkent	632,4	105,4	336,3	112,8
Jondor	702,2	100,1	292,6	77,7
Kogon	1 279,1	105,0	411,9	131,6
Olot	311,0	114,8	84,1	95,8
Peshkoʻ	465,4	108,2	163,8	107,0
Romitan	937,8	103,3	117,9	106,6
Shofirkon	523,5	112,9	227,8	139,5
Qorakoʻl	883,9	101,5	355,3	103,1
Qorovulbozor	11 282,7	105,1	275,8	2,2 m.
Gʻijduvon	1 450,2	106,0	779,7	111,7

1) Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda


**Hududlar bo'yicha jami iste'mol tovarlarining ishlab
chiqarish hajmidagi ulushi, foizda**
(2023 yil yanvar-sentabr)



2023 yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlarning jami iste'mol tovarlarining ishlab chiqarish hajmidagi ulushi eng ko'p Buxoro shahrida 22,8 foiz hamda G'ijduvon tumanida 17,7 foizni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Qorovulbozor tumanida (574 010,0 ming. so'm) va Kogon tumanida (15 349,2 ming.so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (10 944,3 ming.so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming.so'mda
(2023 yil yanvar-sentabr)**




Hududlar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Olot (2022 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 113,1 foizga), Shofirkon (111,4 foizga) va Peshko' tumanlarida (106,4 foizga) kuzatilgan bo'lsada, faqatgina G'ijduvon (104,2 foizga) tumanida o'sishning past sur'ati kuzatildi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik subektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,2 foizga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 31,9 foizni tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Jondor (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 86,3 foiz), Shofirkon (83,4 foiz), Olot (82,7 foiz) va Vobkent (77,1 foiz) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kam ulush Buxoro (44,7 foiz), Romitan (38,2 foiz) hamda Qorovulbozor (8,5 foiz) tumanlari kuzatildi.

**Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarishdagi ulushi, foizda**
(2023 yil yanvar-sentabr)



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 153 ta loyiha bo'yicha 3 162,3 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, yanvar-sentabr oylarida 24 546,6 ming AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.


Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari
(yanvar-sentabr)

	2022 yil	2023 yil
Loyihalar soni, birlik	145	153
Korxonalar soni, birlik	134	137
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	2 074,7	3 162,3
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH doll.	19,7	24,5
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	1 262	99

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2 043,8 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Oʻtgan yilda qoʻshma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 9,1 foizni tashkil etgan boʻlsa, hisobot davrida bu koʻrsatkich 9,2 foizni tashkil etgan holda oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 bandga koʻpaygan.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, foiz



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 247 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatayotgan boʻlib, ulardan Buxoro shahriga 950 tasi, G'ijduvon tumaniga 499 tasi, Kogon tumaniga 371 tasi, Romitan tumaniga 342 tasi, Jondor tumaniga 342 tasi, Buxoro tumaniga 298 tasi, Vobkent tumaniga 294 tasi, Shofirkon tumaniga 241 tasi, Qorako'l tumaniga 229 tasi, Peshko' tumaniga 205 tasi, Kogon shahriga 184 tasi, Olot tumaniga 169 tasi va Qorovulbozor tumaniga 123 tasi toʻgʻri keladi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2023 yil yanvar-sentabr)



2023 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda 660 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan Buxoro shahriga 12,6 foizi, G'ijduvon tumaniga 12,6 foizi, Qorako'l tumaniga 12,1 foizi, Kogon tumaniga 10,2 foizi, Vobkent tumaniga 11,1 foizi, Romitan tumaniga 8,9 foizi, Olot tumaniga 6,8 foizi, Kogon shahriga 4,7 foizi, Buxoro tumaniga 4,6 foizi, Peshko'tumaniga 4,5 foizi, Jondor tumaniga 4,5 foizi, Qorovulbozor tumaniga 3,8 foizi, hamda Shofirkon tumaniga 3,6 foizi to'g'ri keladi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxonadan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, nosanoat bo'linmalarga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi: ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar).

Sanoat ishlab chiqarishida o'zgarish indeksleri – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Iste'mol mollari – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi.

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarishi hajmi – boshqa korxonalarga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan, korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot.

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi.

Mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).

Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, viloyatda 2023 yil yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)larining umumiy hajmi 26 568,5 mlrd.so‘mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 103,7 foizni, shu jumladan yalpi dehqonchilik mahsulotlari hajmi 12 468,0 mlrd.so‘mni (103,5 foiz), yalpi chorvachilik mahsulotlari hajmi 13 646,1 mlrd.so‘mni (104,0 foiz), qishloq xo‘jaligida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 185,0 mlrd. so‘mni (105,4 foiz), baliqchilik xo‘jaliklarida 144,7 mlrd. so‘mni (106,4 foiz), ovchilik xo‘jaligida 1,6 mlrd.so‘mni (101,7 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaliklarida 123,1 mlrd.so‘mni (102,3 foiz) tashkil qildi.



26 568,5 Buxoro viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd. so‘m

01



26 300,7

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02



123,1

O‘rmon xo‘jaligi

03




144,7

Baliqchilik xo‘jaligi

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)
hajmining taqsimlanishi, foizda
(2023 yil yanvar-sentabr)**

	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlar hajmi		Aholi jon boshiga, (ming so‘m)
	mlrd. so‘m	2022 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, o‘sish sur‘ati % da	
Buxoro viloyati	26 568,5	103,7	13 137,9
Buxoro sh.	308,7	100,5	1 060,6
Kogon sh.	77,6	141,5	1 211,7
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	3 119,4	101,4	17 708,7
Vobkent	2 381,7	105,1	16 212,3
Jondor	3 388,0	106,0	18 475,9
Kogon	1 808,3	104,4	21 700,3
Olot	1 884,5	105,3	18 229,7
Peshko‘	2 287,3	105,0	17 640,8
Romitan	2 572,6	105,1	17 165,8
Shofirkon	2 425,7	100,9	13 101,5
Qorako‘l	2 659,2	102,2	15 598,3
Qorovulbozor	778,3	108,3	39 596,7
G‘ijduvon	2 877,2	101,1	9 014,0

2023 yil yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o‘shish sur‘atlari




Xususan, yuqori o‘shish sur‘atlari Qorovulbozor (108,3 foiz), Jondor (106,0 foiz), Olot (105,3 foiz) va Vobkent (105,1 foiz) tumanlarida kuzatildi. Shofirkon tumanida (100,9 foiz) va Buxoro shahrida (100,5 foiz) esa aksincha past sur‘atlar kuzatildi.


Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2023 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘shishi 2022 yil mos davriga nisbatan 103,7 foizni, shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari 103,5 foizni va chorvachilik mahsulotlari 104,0 foizni tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi, foizda




Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, foizda



2023 yil yanvar-sentabr oylarida 26 114,1 mlrd. soʻmga teng boʻlgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 12 468,0 mlrd. soʻmga teng qismi yoki 47,7 foizi dehqonchilik, 13 646,1 mlrd. soʻmga teng qismi yoki 52,3 foizi chorvachilik sohasiga toʻgʻri keladi.


2023 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda Qorovulbozor, Peshkoʻ va Romitan tumanlarida asosan dehqonchilik sohasining ancha rivojlanganligini koʻrsatdi. Ushbu tumanlarda jami qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hajmining 61,9-53,0 foizini dehqonchilik mahsulotlari tashkil etadi. Shuningdek, Kogon, Gʻijduvon, Qorakoʻl, Olot tumanlarida asosan chorvachilik sohasining ancha rivojlanganligini kuzatish mumkin. Ushbu hududlarda jami qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hajmining 71,0-53,9 foizini chorvachilik mahsulotlari tashkil etadi.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining
xoʻjaliklar toifalari boʻyicha taqsimlanishi, foiz**



Xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlillar, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari umumiy hajmining 69,2 foizi dehqon va tomorqa xoʻjaliklariga, 26,7 foizi fermer xoʻjaliklariga, 4,1 foizi qishloq xoʻjaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida, foizda



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi kuzatildi.

2023 yil yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor (55,3 foizi), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Qorako'l (78,1 foizi) tumanlari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Buxoro (14,8 foizi) shahrida qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich esa Kogon (15,7 foizi), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Qorovulbozor (32,2 foizi) hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Qorako'l (1,2 foizi) tumanlarida qayd etildi.

Dehqonchilik



2023 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarning hajmi 12 468,0 mlrd.so'mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 103,5 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 47,7 foizni tashkil kildi.

Viloyatda 2023 yil 1 oktabr holatida 213,4 ming tonna paxta yetishtirilib, shartnomaviy rejaning 58,9 foizi bajarildi. Viloyat paxtakorlari yalpi xirmon salmog'ini 362,0 ming tonnaga yetkazish maqsadida, yig'im terim ishlarini olib bormoqdalar.

Viloyatda 2023 yil 1 oktabr holatida davlat xirmoniga 79,3 ming tonna g'alla topshirildi. Shartnomaviy reja 105,8 foizga uddalandi. Bundan tashqari kelgusi yil hosili uchun 19,5 ming tonna urug'lik don ham tayyorlandi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon va tomorqa xo'jaliklarining salmog'i yuqori bo'lmoqda, jumladan jami yetishtirilgan kartoshkaning 83,3 foizi, sabzavotning 80,2 foizi, poliz mahsulotlarining 75,2 foizi, uzumning 50,5 foizi va mevaning 48,8 foizi ular hissasiga to'g'ri keldi.


Hosilni yig'ib olish



2023 yilning yanvar-sentabr oylarida jami don 532 602 tonna (2022 yil shu davriga nisbatan 4,3 foizga ko'p), shu jumladan, boshli don 462 757 tonna, shundan bug'doy 459 895 tonna o'rib olindi.

Kartoshka 236 144 tonna (1,2 foizga ko'p), sabzavot 675 477 tonna (0,1 foizga ko'p), poliz 125 491 tonna (2,2 foizga ko'p), meva 233 631 tonna (3,9 foizga ko'p), uzum 175 224 tonna yig'ib olindi.

**Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini
ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi, % hisobida**



2023 yilning yanvar-sentabr oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


	<i>Fermer xo‘jaliklari</i>		<i>Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari</i>		<i>Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>ming tonna</i>	<i>o‘shish sur‘ati, foizda</i>	<i>ming tonna</i>	<i>o‘shish sur‘ati, foizda</i>	<i>ming tonna</i>	<i>o‘shish sur‘ati, foizda</i>
Paxta	189,3	117,1	-	-	24,1	125,7
Don	414,8	103,2	81,3	100,1	36,5	132,4
Kartoshka	36,3	106,6	196,8	100,2	3,0	101,1
Sabzavotlar	119,0	96,9	541,4	100,7	15,1	107,6
Poliz	30,7	107,4	94,3	100,6	0,5	105,9
Mevalar va rezavorlar	117,5	108,2	114,1	99,7	2,0	107,4
Uzum	85,8	97,6	88,5	91,0	0,9	108,4

2023 yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Paxta (tonna)




Don (tonna)




Kartoshka (tonna)




Sabzavotlar (tonna)




Poliz (tonna)



Mevalar va rezavorlar (tonna)



Uzum (tonna)



Chorvachilik



2023 yil yanvar - sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 13 646,1 mlrd.so'mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 104,0 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 52,3 foizni tashkil etdi.


2023 yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 208 812 tonna go'sht (2022 yil yanvar - sentabrga nisbatan 4,4 foizga ko'p), 762,5 ming tonna sut (2,7 foizga ko'p), 406,4 mln.dona tuxum (3,7 foizga ko'p), 3 170 tonna jun (5,9 foizga ko'p), 476,7 ming dona qorako'l teri (o'tgan yilga nisbatan 4,1 foizga ko'p) ishlab chiqarildi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida xo'jaliklar toifalari bo'yicha
asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon va tomorqa xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miq-dori	o'sish sur'ati, foiz	miq-dori	o'sish sur'ati, foiz	miq-dori	o'sish sur'ati, foiz	miq-dori	o'sish sur'ati, foiz
Go'sht tirik vaznda, tonna	208 812	104,4	12 401	115,9	183 104	100,8	13 307	173,1
Sut, tonna	762 455	102,7	57 058	102,9	698 685	102,7	6 712	103,7
Tuxum, ming dona	406 399	103,7	89 720	142,2	202 235	100,9	114 444	89,2
Jun, tonna	3 170	105,9	446	112,9	2 477	103,7	247	117,1
Qorako'l teri dona	476 722	104,1	49 471	129,6	401 146	100,6	26 105	122,7

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha taxlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 87,7 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 91,6 foizi, tuxumning 49,8 foizi, junning 78,1 foizi, qorako'l terining 84,1 foizi ham dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini
ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi




**2023 yil 1 oktabr holatiga xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha
chorva mollari va parrandalar bosh soni**


	Barcha toifadagi xo‘jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo‘jaliklari		dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming bosh	o‘shish sur‘ati, foiz	ming bosh	o‘shish sur‘ati, foiz	ming bosh	o‘shish sur‘ati, foiz	ming bosh	o‘shish sur‘ati, foiz
Yirik shoxli qoramollar	1 341,6	102,9	108,6	114,4	1 210,0	101,6	23,0	135,3
shu shumladan sigirlar	438,8	102,2	38,2	121,7	395,1	100,5	5,5	110,0
Qo‘y va echkilar	2 408,1	104,0	419,8	123,0	1 814,8	100,2	173,5	105,8
Parrandalar	7 858,9	128,2	2 013,7	154,6	2 947,3	100,1	2 897,9	153,9

**Ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini hududlar
kesimida taqsimlanishi**

Go‘sh t. (ming t.)




Sut (ming t.)



Tuxum (mln.dona)



Ovlangan baliq (tonna)



2023 yil 1 oktabr holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	ming bosh	o'sish sur'ati, foiz
Yirik shoxli qoramol	1 341,6	102,9
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	108,6	114,4
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 210,0	101,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	23,0	135,3
shundan sigirlar	438,8	102,2
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	38,2	121,7
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	395,1	100,5

*Buxoro viloyatining
ijtimoiy-iqtisodiy holati*

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, foiz</i>
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,5	110,0
Qo'y va echkilar	2 408,1	104,0
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	419,8	123,0
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 814,8	100,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	173,5	105,8
Otlar (bosh)	7 623	106,0
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	3 158	117,6
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	3 241	94,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 224	114,5
Parrandalar	7 858,9	128,2
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	2 013,7	154,6
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 947,3	100,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 897,9	153,9

2023 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari


	<i>Miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, foiz</i>
Go'sht (tirik vaznda), ming tn.	208,8	104,4
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	12,4	115,9

	<i>Miqdori</i>	<i>o‘sish sur‘ati, foiz</i>
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	183,1	100,8
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	13,3	173,1
Sut, ming tn.	762,5	102,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	57,1	102,9
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	698,7	102,7
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,7	103,7
Tuxum, mln. dona	406,4	103,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	89,7	142,2
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	202,2	100,9
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	114,5	89,2

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2023 yil 1 oktabr holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 341,6 ming boshni, shu jumladan sigirlar 438,8 ming boshni, qo‘y va echkilar 2 408,1 ming boshni, ot 7 623 boshni, parrandalar 7 858,9 ming boshni tashkil etdi. 2022 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 38,2 ming boshga (2,9 foizga), shu jumladan sigirlar 9,4 ming boshga (2,2 foizga), qo‘y va echkilar 92,0 ming boshga (4,0 foizga), otlar 433 boshga (6,0 foizga), parrandalar 1 729,8 ming boshga (28,2 foizga) ko‘paydi.

**Xo‘jalik toifalarining chorva mollari
va parrandalar bosh sonidagi ulushi, foizda**



■ Fermer xo‘jaliklari


■ Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

■ Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023 yil 1 oktabr holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollar 8,1 foizi fermer xo‘jaliklariga 90,2 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,7 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 17,4 foizi fermer xo‘jaliklariga, 75,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 7,2 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 25,6 foizi fermer xo‘jaliklariga, 37,5 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 36,9 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2023 yil 1 oktabr xolatiga shahar va tumanlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni


Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)



shu jumladan: sigirlar (ming bosh)



Qo'ylar va echkilar (ming bosh)



Parrandalar (ming bosh)



Fermer xo‘jaliklari. 2023 yil yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 6 975,8 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 26,7 foizni tashkil etdi.

2023 yil 1 oktabr holatida fermer xo‘jaliklarida 108,6 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 38,2 ming bosh sigir, 419,8 ming bosh qo‘y va echkilar, 2 013,7 ming bosh parrandalar mavjud bo‘lib, 2022 yil 1 oktabr holatiga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 14,4 foizga ko‘p, qo‘y va echkilar 23,0 foizga, parrandalar 54,6 foizga ko‘paygan.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari

	2022 yil		2023 yil		o‘sish sur‘ati, foiz
	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	
Paxta	161 694	89,4	189 287	88,7	117,1
Don jami	401 972	78,7	414 809	77,9	103,2
Kartoshka	34 093	14,6	36 354	15,4	106,6
Sabzavot	122 762	18,2	118 944	17,6	96,9
Poliz jami	28 598	23,3	30 700	24,5	107,4
Mevalar	108 628	48,3	117 522	50,3	108,2
Uzum	88 012	47,3	85 867	49,0	97,6
Go‘sh, tirik vaznda	10 697	5,3	12 401	5,9	115,9
Sut	55 471	7,5	57 058	7,5	102,9
Tuxum, ming dona	63 102	16,1	89 720	22,0	142,2
Jun	395	13,2	446	14,1	112,9
Qorako‘l teri, dona	38 174	8,3	49 471	10,4	129,6
Pilla	761	29,6	526	19,4	69,1
Ovlangan baliq	1 149	20,5	1 247	20,9	108,5

2023 yil yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan tirik vaznda 12 401 tonna go‘sh (2022 yil yanvar - sentabrga nisbatan 15,9 foizga ko‘p), 57,1 ming tonna sut (2,9 foizga ko‘p), 89,7 mln.dona tuxum (42,2 foizga ko‘p), 446 tonna jun (12,9 foizga ko‘p), 49,5 ming dona qorako‘l teri (o‘tgan yilga nisbatan 29,6 foizga ko‘p) ishlab chiqarildi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko'p yillik yosh ko'chatlarni o'stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan yetishtirish qiymatlarining o'zgarishi yig'indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o'stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qiymatlarini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

Ovchilik - ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko'rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko'paytirish va davolash harajatlari hisobga olinadi.

O'rmon xo'jaligi – o'rmon va o'rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong'inga qarshi dasturlarni ishlab chiqarish kiradi. O'rmon xo'jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag'ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko'chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi qo'ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong'oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliq xo'jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohasining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining yig'ilgan yalpi hosili qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer va dehqon va tomorqa xo'jaliklarida asosiy va takroriy, bog'larning qator oralaridagi qishloq xo'jaligi ekinlaridan yig'ib olingan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi.

Fermer xo‘jaliklari - ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida ta‘qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub’ektidir.

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari – oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a‘zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida erga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi sub’ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni - xo‘jalik toifalari bo‘yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o‘z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va h.k.)

Go‘sht yetishtirish - so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o‘z ichiga oladi.

Sut yetishtirish - yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘shgan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya sultari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi yetishtirishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish - barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo‘ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.

Jun yetishtirish - xo‘jalikning ichki ehtiyojlariga sarflangani hamda junni saqlash va tashish jarayonida yo‘qotilganini qo‘shgan holda, qo‘y, echki, tuyalardan haqiqatda qirqib olingan natura vazndagi (qirqib olingandan keyingi vaznda) barcha junlarni o‘z ichiga oladi, bunga tullash juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo‘shiladi.

IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

2023 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko'paytirishga 18 718,0 mlrd.so'm (dollar ekvivalentida 1,6 mlrd. AQSH doll.) miqdorida investitsiyalar kiritildi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,6 foizni tashkil etdi.


Asosiy kapitalga investitsiyalar oxirgi 5 yilning tegishli davrlari mobaynida dinamikasini kuzatadigan bo'lsak, 2018 yilning yanvar- sentabr oylariga – 6,7 trln. so'm yoki 61,1 foiz, 2019 yilda – 7,2 trln. so'm yoki 95,7 foiz, 2020 yilda – 9,7 trln. so'm yoki 120,3 foizni , 2021 yilda – 14,2 trln. so'm yoki 129,1 foizni, 2022 yilda – 16,3 trln. so'm yoki 101,5 foiz o'sishni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kiritilgan investitsiyalar hajmi

(2023 yil yanvar-sentabr)

	<i>Investitsiya hajmi</i>		<i>Aholi jon boshi (ming so'm)</i>
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>	
Buxoro viloyati	18 718,0	106,6	9 255,8
Buxoro sh.	4 405,8	97,3	15 140,2
Kogon sh.	225,8	162,0	3 521,9
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	1 620,3	113,4	9 201,1
Vobkent	563,8	113,5	3 837,8
Jondor	489,6	111,4	2 669,5
Kogon	1 378,5	44,9	16 549,1
Olot	674,0	87,0	6 518,1
Peshko'	1 538,5	5,2 m.	11 862,3
Romitan	3 098,6	82,9	20 671,1
Shofirkon	297,7	86,2	1 608,5
Qorako'l	863,1	136,9	5 062,3
Qorovulbozor	1 430,6	144,9	72 618,2
G'ijduvon	2 131,7	3,1 m.	6 678,1

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘shish sur‘atlari, foizda
(yanvar-sentabr)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o‘shish sur‘atlari Peshko‘ (o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 5,2 marta ko‘p asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 1 538,5 mlrd. so‘m), G‘ijduvon (3,1 marta, 2 131,7 mlrd. so‘m) tumanlarida va Kogon shahrida (162,0 foiz, 225,8 mlrd. so‘m) kuzatildi.


Asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilgan hajmi bo‘yicha tumanlar kesimida Buxoro shahar yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 27,1 foizi o‘zlashtirildi.

Shuningdek, Romitan tumani jami investitsiyalar hajmidan 19,1 foizini, G‘ijduvon tumani 13,1 foizini tashkil etmoqda., Buxoro, Peshko‘, Qorovulbozor va Kogon tumanlarida ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 10,0 foizni, 9,5 foizni, 8,8 foizni va 8,5 foizini tashkil etdi.

Shofirkon tumanida va Kogon shahri investitsiyalar eng kam o‘zlashtirilgan bo‘lib, har birining viloyatdagi ulushi 1,8 foizi va 1,4 foizini tashkil etdi.

Aholi jon boshiga kiritilgan investitsiyalar

(2023 yil yanvar-sentabr)




2023 yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Qorovulbozor tumani (72 618,2 ming so'm yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 141,3 foiz), Romitan tumanida (20 671,1 ming so'm, 81,4 foiz) hamda, Kogon tumanida (16 549,1 ming so'm, 44,0 foiz) qayd etildi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan
investitsiyalarning taqsimlanishi quyida keltirilgan

	mlrd.so'm	o'sish sur'ati, foiz	yakunga nisbatan foiz
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	18 718,0	106,6	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Markazlashgan investitsiyalar:	2 361,4	114,3	12,6
byudjet mablag'lari	1 055,0	151,1	5,6
suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	65,8	77,2	0,4
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	1 240,6	96,8	6,6
Markazlashmagan investitsiyalar	16 356,6	105,6	87,4
korxonalarining o'z mablag'lari	4 795,1	131,2	25,6
aholi mablag'lari	2 015,1	103,3	10,8
to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	8 091,3	87,3	43,2
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	1 455,1	2,3 m.	7,8


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va
markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari
(yanvar-sentabr)



Markazlashgan moliyalashtirish manbaalari hisobidan kiritilgan investitsiyalar hajmi 2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan o'sish sur'ati 114,3 foizni tashkil etib, 2 361,4 mlrd. so'mga etdi. Jami investitsiyalar hajmida esa markazlashgan moliyalashtirish manbaalari hisobidan kiritilgan investitsiyalar hajmining ulushi 12,6 foiz (2022 yil yanvar-sentabr oylarida 12,6 foiz)ni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari


(yanvar-sentabr jami investitsiyalar hajmidagi ulushi, foizda)



Shundan, byudjet mablag'lari 1 055,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 151,1 foizni tashkil qildi (umumiy hajmdagi ulushi 5,6 foiz) tashkil etdi, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar 1 240,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,8 foizni tashkil qildi (umumiy hajmdagi ulushi 6,6 foiz), suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 65,8 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'sish sur'ati 151,1 foizni tashkil qildi (umumiy hajmdagi ulushi 0,4 foiz).

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari

(yanvar-sentabr jami investitsiyalar hajmidagi ulushi,foizda)



Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan kiritilgan jami investitsiyalar 16 356,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 105,6 foiz (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 87,4 foiz) tashkil etdi. Shundan jami investitsiyalar hajmida eng koʻp ulush toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiya va kreditlar oʻzlashtirilgan investitsiyalar hisobiga boʻlib, 8 091,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 87,3 foiz tashkil qildi (umumiy hajmdagi ulushi 43,2 foizni), korxonaning oʻz mablagʻlari hisobiga 4 795,1 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 131,2 foizni tashkil qildi (umumiy hajmdagi ulushi 25,6 foiz), aholi mablagʻlari hisobiga oʻzlashtirilgan investitsiyalar 2 015,1 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 103,3 foizni tashkil qildi (umumiy hajmdagi ulushi 10,8 foiz), tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari 1455,1 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 marta koʻpaydi (umumiy hajmdagi ulushi 7,8 foiz).

Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish
manbalari bo'yicha tarkibi

	Jami investitsiyalar, mlrd.so'm	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jami nisbatan, foiz)					
		Respublika byudjeti	Korxonalar mablag' lari	Aholi mablag' lari	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarzmablag' lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish
Buxoro viloyati	18 718,0	5,6	25,6	10,8	7,8	49,8	0,4
Buxoro sh.	4 405,8	6,6	36,4	7,0	16,8	33,2	-
Kogon sh.	225,8	4,7	15,5	14,4	2,8	62,6	-
<i>tumanlar</i>							
Buxoro	1 620,3	4,7	44,0	10,6	4,6	36,1	-
Vobkent	563,8	13,9	28,4	18,6	17,2	21,9	-
Jondor	489,6	10,6	20,4	34,3	10,2	24,5	-
Kogon	1 378,5	2,7	14,0	10,8	12,6	59,9	-
Olot	674,0	11,0	12,5	27,1	3,8	45,7	-
Peshko'	1 538,5	3,9	2,7	10,7	1,7	81,0	-
Romitan	3 098,6	6,2	37,5	6,1	2,4	47,8	-
Shofirkon	297,7	19,5	29,2	34,4	12,6	4,3	-
Qorako'l	863,1	5,9	23,6	18,4	-	48,4	3,7
Qorovulbozor	1 430,6	0,5	24,0	1,7	0,7	73,1	-
G'ijduvon	2 131,7	3,1	3,3	12,0	6,7	73,3	1,6


2023 yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan
investitsiyalarning texnologik tarkibi

mlrd. so'm

	jami	davlat	nodavlat
Jami	18 718,0	2 251,5	16 466,5
<i>shu jumladan: umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida</i>			
qurilish-montaj ishlari	51,1	77,3	47,5
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlar	39,9	16,2	43,2
boshqa xarajatlar	9,0	6,5	9,3

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish va montaj ishlarining ulushi 2022 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 0,9 punktga oshgan va mashina, uskunalar, transport vositalari, ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlar qiymati ulushi 4,2 punktga kamaygan.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
(umumiy hajmga nisbatan, foizda)
(yanvar-sentabr)



- Elektir energiyasi, gaz, bug‘ bilan va konditsiyalangan havo
- Uy-joy qurilish
- Ishlab chiqaradigan sanoatda
- Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlashga
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tashish va saqlash
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- Qurilish
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqa faoliyat turlari

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqoridagi diagrammada ko'rsatib o'tilganidek, elektr energiyasi, gaz, bug' bilan va konditsiyalangan havo faoliyat turlari yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 4 679,4 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 25,0 foizi o'zlashtirilgan.

Shuningdek, asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari tashish va saqlashqa 22,3 foizi, ishlab chiqarish sanoatiga 16,0 foizi, uy-joy qurilishiga 8,2 foizi, qishloq, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 6,9 foizi, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 6,1 foizi va boshqa faoliyat turlariga 15,5 foizi to'g'ri keladi.


Turar joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshiririshi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan, foizda)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>umumiy hajmdagi ulushi, foiz</i>
Jami	18 718,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
yangi qurilish	11 675,7	62,4
kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish	4 343,0	23,2
boshqa yo'nalishlar	2 699,3	14,4

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi bo'yicha umumiy hajmidan yangi qurilishga 11 675,7 mlrd. so'm yoki 62,4 foizi, kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirishga 4 343,0 mlrd. so'm yoki 23,2 foizi va boshqa yo'nalishlarga 2 699,3 mlrd. so'm yoki 14,4 foizi to'g'ri keladi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (foizda)



- Yangi qurilish
- Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qurollantirish
- Boshqalar


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zlashtirilgan
asosiy kapitalga investitsiyalar
(yanvar-sentabr)

	mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda	
		2022 yil	2023 yil
Asosiy kapitalga investitsiyalar - jami	18 718,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan</i>			
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 141,2	10,6	6,1
tog' - kon sanoati	1 283,2	9,8	6,9
ishlab chiqarish sanoati	2 994,8	18,0	16,0
elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	4 679,4	7,7	25,0
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	228,6	2,0	1,2
qurilish	885,8	2,6	4,7
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	488,3	2,9	2,6

	mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, foizda	
		2022 yil	2023 yil
tashish va saqlash	4 177,1	30,0	22,3
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	99,0	1,3	0,5
axborot va aloqa	100,8	0,5	0,5
moliya va sug‘urta faoliyati	31,0	0,1	0,2
ta‘lim	266,5	1,7	1,4
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	264,3	2,2	1,4
jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar	1 526,9	8,6	8,2
boshqa faoliyat turlari	551,1	2,0	3,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilishi: ishlab chiqarish sanoatida 2 994,8 mlrd. so‘m (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 16,0 foiz), shu jumladan oziq-ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish 241,2 mlrd.so‘m (1,3 foiz), to‘qimachilik mahsulotlarni ishlab chiqarish 1 078,2 mlrd.so‘m (5,8 foiz), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati turida 16,1 mlrd.so‘m (0,1 foiz), boshqa nometal nomineral mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyat turida 604,0 mlrd. so‘m (3,2 foiz), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash faoliyat turida 4 679,4 mlrd. so‘m, (25,0 foiz), suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish faoliyat turida 228,6 mlrd. so‘m, (1,2 foiz), qurilish faoliyati turida 885,8 mlrd. so‘m (4,7 foiz), tashish va saqlash faoliyat turida 4 177,1 mlrd. so‘m (22,3 foiz), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash faoliyat turida 488,3 mlrd. so‘m (2,6 foiz), axborot va aloqa faoliyat turida 100,8 mlrd. so‘m (0,5 foiz), ta‘lim sohasida 266,5 mlrd. so‘m (1,4 foiz), jami faoliyat turlaridan tashqari turar joy qurilishida 1526,9 mlrd. so‘m 8,2 foiz) investitsiyalar o‘zlashtirildi.

**2023 yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy
kapitalga investitsiyalar tarkibi**



Korxonalar va tashkilotlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish, hamda kengaytirishga investitsiyalar hajmi 2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan 0,1 punktga ko'paygan.

Buxoro viloyati asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha korxonalar va tashkilotlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish, hamda kengaytirishga investitsiyalar ulushi 23,2 foizni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar


Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 43,2 foizni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi G'ijduvon (16,7 foiz) va Romitan (15,9 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish, kreditlarni qo'shgan holda

	<i>Xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi, mlrd. so'm</i>		<i>Xorijiy investitsiyalar, jamiga nisbatan foizda</i>	
	<i>jami</i>	<i>shu jumladan, kreditlar</i>	<i>jamiga</i>	<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar</i>
Buxoro viloyati	9 331,7	4 331,8	100,0	49,8
Buxoro sh.	1 462,5	1 341,6	15,7	33,2
Kogon sh.	141,2	133,2	1,5	62,6
tumanlar				
Buxoro	586,0	-	6,3	36,1
Vobkent	123,3	123,3	1,3	21,9
Jondor	119,9	119,9	1,3	24,5
Kogon	825,4	606,0	8,8	59,9
Olot	307,7	151,4	3,3	45,7
Peshko'	1 247,1	82,8	13,4	81,0
Romitan	1 480,6	1 312,1	15,9	47,8
Shofirkon	12,8	12,8	0,1	4,3
Qorako'l	417,7	19,4	4,5	48,4
Qorovulbozor	1 046,0	324,9	11,2	73,1
G'ijduvon	1 561,7	105,5	16,7	73,3


Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish
2023 yil yanvar-sentabr (mln. AQSH doll.)



O'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlarning dollar ekvivalentidagi qiymati 807,9 mln. AQSH dollarini tashkil etib, undan 703,1 mln. AQSH dollari to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyava kreditlarni, yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 87,0 foizni tashkil etdi.

To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarning o'zlashtirilgan hajmi 2023 yil yanvar-sentabr oylarida 8091,3 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,0 foizni tashkil qildi.

Ayrim iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar ishlab chiqarish sanoati faoliyatiga 2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan 5,1 punktga (jamiga nisbatan ulushi 18,6 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 8,2 punktga (2,1 foiz) va tog'-kon sanoatida 2,7 punktga (8,3 foiz), hamda tashish va saqlash faoliyat 9,8 punktga (29,6 foiz) kamaydi, lekin elektr energiyasi, gaz, bug' bilan va konditsiyalangan havo sohasida 28,3 punktga oshgan (jamiga nisbatan ulushi 36,0 foiz).

Ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish

Noishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmidan 1 447,5 mlrd.so'm yoki 34,8 foizi uy-joy qurilishida o'zlashtirilgan. 2023 yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 1 215,5 ming kv.m. bo'lgan 4 087 ta uy-joy (o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 103,9 foiz), shu jumladan, qishloq joylarida 882,1 ming kv.m. (o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 95,2 foiz) uy-joy foydalanishga topshirildi.

Yangi qurilish va rekonstruksiya hisobiga turar joylar va ijtimoiy ob'ektlarni ishga tushirish

(2023 yil yanvar-sentabr)

	Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan:			
	Ishga tushirildi		o'tgan yilning mos davriga o'sish sur'ati, foizda	
	jami	jumladan qishloq joylarda	jami	jumladan qishloq joylarda
Turar joylar umumiy maydoni, ming kv.m.	1 215,5	882,1	103,9	95,2
ulardan:				
yakka tartibdagi turar joylar	1 213,1	879,8	105,2	96,4

2023 yil yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 1215,5 ming kv.m (2022 yilning mos davriga nisbatan 103,9 foiz) bo'lgan 4 988 xonadonga ega 4,1 ming turar joylar, jumladan 882,1 ming kv.m. (72,6 foiz) qishloq joylarda ishga tushirildi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida ishga tushirilgan turar joylar

	<i>Ishga tushirildi, jami</i>		<i>Ulardan: yakka tartibdagi turar joylar</i>	
	<i>ming kv.m</i>	<i>o'tgan yilning mos davriga o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>ming kv.m</i>	<i>o'tgan yilning mos davriga o'sish sur'ati, foizda</i>
Buxoro viloyati	1 215,1	103,9	1 213,1	105,2
Buxoro sh.	168,0	111,2	168,0	113,4
Kogon sh.	19,8	105,3	19,8	105,3
<i>tumanlar</i>				
Buxoro	109,6	103,1	109,6	104,0
Vobkent	55,4	101,5	55,4	101,5
Jondor	88,9	110,8	88,9	113,2
Kogon	104,3	102,6	104,3	103,5
Olot	132,6	107,4	131,2	106,2
Peshko'	100,5	103,1	100,5	104,0
Romitan	117,2	99,9	117,2	100,7
Shofirkon	58,3	98,1	58,3	103,7
Qorako'l	72,4	100,3	72,4	102,8
Qorovulbozor	6,6	95,7	6,6	108,2
G'ijduvon	181,9	100,9	180,9	101,8

Umumiy maydoni 1 215,1 ming kv.m. yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,9 foiz yakka tartibda qurilgan turar joylar ishga tushirildi.

Umumta'lim maktablarini qurish va qayta ta'mirlashga 73,0 mlrd.so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi, bu esa noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 1,8 foizini va ta'lim sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 27,4 foizini tashkil qildi.

Sog'liqni saqlash ob'ektlarini qurilishida 26,3 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 0,6 foizini tashkil qiladi. Ichimlik suvi tarmoqlari qurilishiga 73,1 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi va 196,8 km suv tarmoqlari foydalanishga topshirildi.


Qurilish faoliyati. 2023 yil yanvar-sentabr oylarida 6 771,4 mlrd. so'mlik qurilish pudrat ishlari bajarilib, 2022 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 foizni tashkil etdi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 71,4 foizi yangi qurilish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va texnik jihatdan qayta jihozlashga, 28,6 foizi kapital ta'mirlash va boshqa pudrat ishlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari
(yanvar-sentabr oylarida)

	2022 yil (mlrd. so'm)	2023 yil (mlrd. so'm)	O'tgan yilga nisbatan, % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Buxoro viloyati	6 117,8	6 771,4	102,9	100,0
Buxoro sh.	1 422,8	1 652,0	108,2	24,5
Kogon sh.	429,5	338,1	73,6	5,0
<i>tumanlar</i>				
Buxoro	396,2	412,9	96,6	6,1
Vobkent	311,0	338,4	101,1	5,0
Jondor	337,9	391,1	107,3	5,8
Kogon	461,5	566,9	114,4	8,4
Olot	345,0	388,1	104,2	5,7
Peshko'	414,4	434,9	97,4	6,4
Romitan	549,8	711,1	120,4	10,5
Shofirkon	453,2	490,2	100,9	7,2
Qorako'l	226,3	266,2	108,6	3,9
Qorovulbozor	336,8	294,0	81,7	4,3
G'ijduvon	433,4	487,5	103,8	7,2

Hududlar kesimida qurilish ishlarining o‘shish sur‘ati, foizda
(yanvar-sentabr)




Hududlar kesimida qurilish ishlari

	Jami, mlrd. so‘m	shu jumladan mulkchilik shakllari bo‘yicha, jami hajmga nisbatan foizda	
		davlat	nodavlat
Buxoro viloyati	6 771,4	5,1	94,9
Buxoro sh.	1 652,0	13,8	86,2
Kogon sh.	338,1	4,4	95,6
tumanlar			
Buxoro	412,9	2,5	97,5
Vobkent	338,4	2,0	98,0
Jondor	391,1	3,1	96,9

	Jami, mlrd. so‘m	shu jumladan mulkchilik shakllari bo‘yicha, jami hajmga nisbatan foizda	
		davlat	nodavlat
Kogon	566,9	1,5	98,5
Olot	388,1	2,6	97,4
Peshko‘	434,9	2,4	97,6
Romitan	711,1	1,7	98,3
Shofirkon	490,2	1,0	99,0
Qorako‘l	266,2	4,0	96,0
Qorovulbozor	294,0	1,3	98,7
G‘ijduvon	487,5	2,5	97,5

Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 6 426,5 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 94,9 foizni (2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan o‘shish sur‘ati 101,1 foizni) tashkil qildi.

Iqtisodiy foliyat turlari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari
(mlrd.so‘m)




Qurilish ishlari umumiy hajmining 62,8 foizi binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari, 26,8 foizi fuqarolik qurilishi ob‘ektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari va 10,4 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to‘g‘ri keldi.

**Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish tashkilotlarining
o'z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti**
(umumiy hajmga nisbatan, foizda)

2022 yil yanvar-sentabr



2023 yil yanvar-sentabr



■ Davlat mulki ■ Nodavlat mulki

Hisobot davrida bino va inshootlar qurilishi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi 4 254,1 mlrd. so'mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 102,0 foizni, mos ravishda, fuqarolik qurilishi ob'ektlari bo'yicha qurilish hajmi 1 813,1 mlrd. so'mni (yoki 108,9 foizni), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi 704,2 mlrd. so'm (yoki 94,8 foizni) tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi
(mlrd. so'm)

	Qurilish ishlari, xizmatlar jami	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik qurilishi ob'ektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	6 771,4	4 254,1	1 813,1	704,2
Buxoro sh.	1 652,0	888,8	633,7	129,5
Kogon sh.	338,1	146,9	138,2	53,0
tumanlar				
Buxoro	412,9	293,1	93,8	26,0
Vobkent	338,4	248,3	69,5	20,6
Jondor	391,1	264,6	99,0	27,5

	<i>Qurilish ishlari, xizmatlar jami</i>	<i>shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari</i>		
		<i>Bino va inshootlar qurilishi</i>	<i>Fuqarolik qurilishi ob'ektlari</i>	<i>Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari</i>
Kogon	566,9	338,5	185,7	42,7
Olot	388,1	238,1	43,1	106,9
Peshko'	434,9	287,1	114,7	33,1
Romitan	711,7	564,1	116,3	30,7
Shofirkon	490,2	287,7	157,0	45,5
Qorako'l	266,6	198,7	52,6	14,9
Qorovulbozor	294,0	114,2	27,9	151,9
G'ijduvon	487,5	384,0	81,6	21,9

Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy qismi bino va inshootlar qurilishi (4 254,1 mlrd.so'm) ga to'g'ri kelib, viloyat umumiy hajmida 62,8 foizni tashkil qildi. Shu bilan birga, fuqarolik qurilishi (1 813,1 mlrd. so'm) ob'ektlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari viloyat umumiy hajmining 26,8 foizni hamda ixtisoslashtirilgan qurilish (704,2 mlrd. so'm) ishlari 10,4 foizni tashkil etdi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar bu – real mablag'larni yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, kapital ta'mirlashga xarajatlar, nomoddiy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar (patentlar, litsenziyalar, dasturiy mahsulotlar, yer maydonlaridan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari va boshqalar).

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga - barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarini montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘larni investitsiya ko‘rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta‘minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bu – korxonaga to‘liq egalik qiluvchi yoki korxonaga aksionerlik kapitalining 10 foizidan kam bo‘lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya‘ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Reinvestitsiya - investitsiyalar bo‘yicha daromadlar ko‘rinishida olingan va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar; investorning faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) muomalaga kiritish (qayta investitsiyalash).

Davlat mulkchiligi- mulkchilik shakllaridan biri, davlatga qarashli va uning o‘z vazifalarini bajarishi uchun zarur barcha mol-mulklar va mulkiy huquqlardir.

Asosiy kapital – kapitalning asosiy ishlab chiqarish vositalari ni o‘z ichiga oluvchi, iqtisodiy jihatdan o‘z qiymatini ishlab chiqarilgan tovarlarga asta-sekin va uzoq muddatda o‘tkazib boruvchi qismi. Asosiy kapital pul shaklida uskuna, mashina-mexanizmlar, bino-inshootlar va boshqalar qiymatidan iborat bo‘lib, ular sotib olingan paytdagi bozor narxi bilan hisoblanadi. Asosiy kapital qiymatining bir qismi har yili mahsulotning ishlab chiqarish va sotish harajatlari kiradi va amortizatsiya ajratmalari tarzida maxsus amortizatsiya fondida jang‘ariladi.

Investitsiya loyihasi – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko‘rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o‘zaro bog‘liq tadbirlar va ishlar majmui.

Kapital- sarmoya, keng ma‘noda o‘z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bo‘lgan jami vositalar va mablag‘la; yangi qiymat keltiruvchi, o‘zini-o‘zi ko‘paytiruvchi qiymat.

Moliyaviy investitsiyalar- mulkka egalik qilish va mulkdan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar orqali qo‘yilmalar kiritish.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar - aksiyalarining (ulushlari, paylarining) yoki ustav jamg‘armasining kamida o‘ttiz foizini chet el investitsiyalari tashkil etadigan korxonalar.

Buyurtmachilar – investitsion jarayonning qatnashchilari. Buyurtmachi sifatida investorning o‘zi, shuningdek, investor tomonidan amaldagi korxonalarni, binolarni,

inshootlarni yangi qurilishi, qayta ta'mirlash, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishni amalga oshirishlari uchun vakil etib tayinlangan jismoniy va yuridik shaxslar faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Shu bilan birga buyurtmachi investitsion jarayon qatnashchilarining tadbirkorlik va boshqa faoliyatiga, agarda ular orasidagi shartnomada nazarda tutilmagan bo'lsa, aralashmasliklari lozim.

Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.

Qurilish — biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Bu jarayon moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri bo'lib, turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuritish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni hisoblanadi.

Rekonstruksiya — mavjud narsani yaxshilash, amaliy ahamiyatini oshirish, takomillashtirish maqsadida tubdan qayta qurish jarayonidir. Bunda qoldiklariga, yozma manbalarga asoslanib, biror narsa qiyofasini yoki dastlabki ko'rinishini tiklash, qurish hisoblanadi. Rekonstruksiya chizma, rasm, tasvir, loyiha va h.k. orqali amalga oshiriladi.

Kapital ta'mirlash — qurilish konstruksiyalarini, shuningdek, muhandislik jihozlarini kommunikatsiyalar bilan tiklash yoki to'liq almashtirish tushuniladi. Amalda kapital ta'mirlash binoning tashqi ko'rinishini to'liq yoki qisman yangilashda ifodalanishi mumkin.

Joriy ta'mirlash - bu xizmat ko'rsatilayotgan ob'ektni shikastlanish va nosozliklardan o'z vaqtida va tizimli ravishda himoya qilishga qaratilgan tadbirlar tushuniladi.

Pudrat shartnomasi — fuqarolik-huquqiy bitim, unga ko'ra, bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig'iga binoan, muayyan ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi. Buyurtmachi esa, ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

Modernizatsiya, modernizatsiyalash - biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish. Modernizatsiya qilishda mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi.

V. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagi xizmatlar ko‘rsatmaydigan yoki hech bo‘lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli yo‘q.

2023 yil 1 oktabr holatiga viloyatda 31 067 ta faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar qayd etildi. Shundan, xizmatlar sohasida 21 119 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 foizga kamaydi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an‘anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi ishlab chiqarilgan bozor xizmatlar hajmini oshishiga olib keldi. Natijada, 2023 yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 13 726,3 mlrd.so‘mni tashkil etdib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 109,3 foizga o‘tdi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan xizmat turlari bo‘yicha (amaldagi baholarda) quyidagicha ifodalanadi:

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foizda</i>	<i>yakunga nisbatan, foizda</i>
Jami xizmatlar	13 726,3	109,3	100,0


shu jumladan:

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	546,7	120,3	4,0
Moliyaviy xizmatlar	2 899,6	119,4	21,1

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2022 yil yanvar- sentabrga nisbatan, foizda</i>	<i>yakunga nisbatan, foizda</i>
Transport xizmatlari	2 856,9	107,1	20,8
shu jumladan: avtotransport xizmati	2 574,7	108,0	18,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	537,3	105,3	3,9
Savdo xizmatlari	4 167,6	100,1	30,4
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	262,8	102,9	1,9
Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	756,4	160,9	5,5
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	266,5	101,4	2,0
Ijara xizmatlari	286,8	99,2	2,1
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar	284,6	100,3	2,1
Shaxsiy xizmatlar	318,6	105,1	2,3
Me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	124,7	102,9	0,9
Boshqa xizmatlar	417,8	105,1	3,0

Xizmat ko‘rsatishda eng katta ulush savdo (30,4 foizi), moliyaviy (21,1 foizi), transport (logistik xizmatlar bilan birga) (20,8 foizi), ta‘lim (5,5 foizi) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (4,0 foizi) xizmatlarga to‘g‘ri keldi. Ta‘lim sohasidagi xizmatlar (o‘tgan yilga nisbatan 60,9 foizga ko‘p), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (19,4 foizga ko‘p) o‘sish yuqori bo‘ldi.

**2023 yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida
shahar va tumanlar kesimida ulushi, foizda**



Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida katta ulushga ega bo'lgan Buxoro shahri (38,3 foizni), G'ijduvon tumani (12,4 foizni), Vobkent tumani (5,9 foizni), Romitan tumani (5,8 foizni) tashkil etgan bo'lsa, Kogon (3,3 foizni) va Qorovulbozor tumanlari (2,0 foizni) bilan eng past ulush ko'rsatkichini qayd etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar
(*tuman va shaharlar kesimida*)


	<i>Jami</i>			<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2022 yil yanvar- sentabrga nisbatan, foizda</i>	<i>jami xizmatlar hajmiga nisbatan, foizda</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2022 yil yanvar- sentabrga nisbatan, foizda</i>
Viloyat bo'yicha	13 726,3	109,3	100,0	6 787,5	107,5
Buxoro sh.	5 262,5	115,0	38,3	18 077,8	112,9
Kogon sh.	519,5	112,2	3,8	8 105,0	110,1
<i>tumanlar</i>					
Olot	461,6	108,9	3,4	4 464,6	107,3
Buxoro	727,6	108,5	5,3	4 132,0	106,7
Vobkent	816,4	88,1	5,9	5 557,9	86,6
G'ijduvon	1 697,7	108,2	12,4	5 318,7	106,3
Kogon	457,1	108,7	3,3	5 486,8	106,5
Qorako'l	609,0	107,2	4,4	3 571,8	105,8
Qorovulbozor	273,1	113,0	2,0	13 932,3	110,7
Peshko'	748,2	106,1	5,5	5 768,9	104,3
Romitan	790,6	109,8	5,8	5 274,0	107,8
Jondor	747,9	107,9	5,4	4 077,7	106,1
Shofirkon	615,1	106,0	4,5	3 322,9	104,6

Hududlar orasida yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shaharda (115,0 foiz) hamda Kogon (112,2 foiz), Qorovulbozor (113,0 foiz) tumanlarda va Romitan (109,8 foiz) shaharlarida kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Buxoro shahrida 18 077,8 ming so'mga teng bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 112,9 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Shofirkon (3 322,9 ming so'm), Qorako'l (3 571,8 ming so'm) va Jondor (4 077,7 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

**2023 yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida
bo'yicha aholi jon boshiga hajmlar, ming so'm**




Hozirgi kunda respublikada ulgurji va birja savdo korxonalarining faoliyati uchun zarur huquqiy asoslar yaratilgan bo‘lib, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmog‘i faol rivojlanmoqda. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 4 167,6 mlrd.so‘mga teng bo‘ldi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ulushi 30,4 foizni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining o‘shish sur‘ati 100,1 foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Buxoro shahri (930,0 mlrd. so‘m), G‘ijduvon (620,7 mlrd. so‘m), Vobkent (403,9 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi, mlrd.so‘m
(2023 yil yanvar-sentabr)



Savdo xizmatlari bo'yicha eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida kuzatildi. Ushbu hududda savdo xizmatlari hajmi 127,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Aholi daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi ko'lami o'smoqda. Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2023 yil yanvar-sentabr oylarida uning ulushi 68,8 foizni tashkil etdi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 24,4 foizni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarni qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 6,8 foizni tashkil qiladi.

Savdo xizmatlari tarkibi, foiz
(2023 yil yanvar-sentabr)




Transport xizmatlarining eng katta qismi avtomobil transportida yuk va yo‘lovchi tashish xizmatlari hisobiga to‘g‘ri keladi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlarining hajmi 2 856,9 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. Ularning o‘shishi 107,1 foizni tashkil etdi.

Yuqori o‘shish sur‘atlari Buxoro (107,3 foiz), Kogon (118,4 foiz) shaharlarida, hamda Qorovulbozor (111,3 foiz), Peshko‘ (107,4 foiz) tumanlarida qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida transport xizmatlarining hajmi, mln. so‘m
(2023 yil yanvar-sentabr)




O'tgan yilning mos davriga nisbatan transport xizmatlarining o'sish sur'ati, Kogon (104,2 foiz) tumanida pasayganligi qayd etildi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar birinchi navbatda ong va fikrlashdagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlab, ma'naviyatni yuksaltirishga hissa qo'shadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod metodik materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.


2023 yil yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 756,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 160,9 foizni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida ta'lim xizmatlarining o'sish sur'ati, foiz
(2023 yil yanvar-sentabr)



2023 yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 266,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 101,4 foizni tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimida sog‘liqni saqlash xizmatlarining o‘shish sur‘ati, foiz
(2023 yil yanvar-sentabr)**



Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo‘yicha yuqori o‘shish sur‘atlari Shofirkon (105,7 foiz) shahrida kuzatildi.

O‘tgan yilga nisbatan bu xizmatlarning eng past ko‘rsatkichi Olot (98,9 foiz) shaxrida qayd etildi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6 787,5 ming so‘mni tashkil qildi va o‘shish sur‘ati o‘tgan yilga nisbatan 107,5 foizni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, uning tarkibini etarlicha rivojlangan jamiyat va rivojlangan ehtiyojlar bilan takomillashtirish mumkin va bu umuman hayot sifati kabi hodisa bilan bog‘liq, chunki turli ehtiyojlarni qondirish jarayoni hayot sifatining muayyan standartini yaratadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Xizmatning o'ziga xos xususiyati, xizmatni bajarish va uni iste'mol qilish davrining bir xil vaqtga to'g'ri kelishi hisoblanadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar hajmida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz hisoblangan to'lovlar hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obykti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, xizmatlar bozor uchun mo'ljallanib ishlab chiqarilgan hisoblanadi.

“Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi” statistik ko'rsatkichi - ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini o'lchovchi, iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi, bu xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ishlab chiqaruvchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari qiymatidir.

Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan, shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Elektron to'lovlar – texnik vositalar, axborot texnologiyalari va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to'lov hujjatlari orqali naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish.

Elektron pullar – O‘zbekiston Respublikasi hududida elektron pullar emitentlari tomonidan chiqariladigan pullar bo‘lib, faqat O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida nomlanishi lozim.

Faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlarni tasniflash, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichiga (keyingi o‘rinlarda MST debataladi) muvofiq amalga oshiriladi.

Bozor xizmatlari hajmi MST bo‘yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo‘yicha shakllantiriladi.

Amaldagi narxlarda aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini ishlab chiqarish, mazkur sohada xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

Moliyaviy xizmatlar Markaziy bank, tijorat banklari va boshqa moliya-kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladi. Bu guruh xizmatlarga banklarning moliyaviy vositachiligi xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachilik xizmatlari va boshqa moliyaviy xizmatlar kiradi.

Amaldagi narxlarda moliyaviy xizmatlarning yalpi ishlab chiqarish hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to‘lovlar miqdorida) hisobga olinadi. Chet el valyutasida kelib tushadigan foizli daromadlar hisobot davridagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli kursi bo‘yicha hisob-kitob qilinadi va so‘mda aks ettiriladi.

Transport xizmatlari transportning barcha turlarida yuklarni va yo‘lovchilarni tashish faoliyati, shuningdek, transportirovka qilishda yordamchi xizmat turlari, jumladan logistik xizmatlarni o‘z ichiga oladi.

Amaldagi narxlarda transport xizmatlarining yalpi ishlab chiqarish hajmi transport turlari bo‘yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog‘liq bo‘lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi. Transport xizmatlari umumiy hajmida pochta va kuryerlik faoliyatining ishlab chiqarilgan yalpi hajmi hisobga olinadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa yashash uchun joylar kabi qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash va oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Savdo xizmatlari ulgurji va chakana xizmatlarni birlashtirib, shuningdek, boshqa shaxs manfaatlari uchun tovarlarni oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalari yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan vositachilik xizmatlari hamda avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari, ushbu faoliyat tashkilotning asosiy faoliyati yoki yo'qligidan qat'iy nazar aks ettiriladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar, umumta'lim, maktabgacha ta'lim davlat muassasalarida tijorat asosida ta'lim olishni, shuningdek, radio va televideniye, Internet-kanallar va pochta aloqalarini qo'shgan holda har qanday darajadagi xususiy ta'lim olish va xohlagan kasbga o'qishni qamrab oladi. **Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar** statsionar shifoxona muassasalari, poliklinikalar, stomatologiya muassasalari va tibbiy laboratoriyalar tomonidan pul asosida ko'rsatilgan kompleks xizmatlarni qamrab oladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar hamda ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

VI. TRANSPORT

Mustaqillik yillarida transport va kommunikatsiya tizimini strategik rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda yaratilgan samarali transport tizimi tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va boshqa mamlakatlar bilan integratsiyalashuv omilidir.

Yuk tashish. 2023 yil yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlari tomonidan 49,4 mln.tonna yuk tashilgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,4 foizni tashkil qildi.

Yuk aylanmasi barcha transpor turlari tomonidan 1 710,4 mln.tn.km.ni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,7 foizni tashkil qildi.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi:

Transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

	<i>2023 yil yanvar-sentabr</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foizda</i>
<i>Tashilgan yuk, mln. tn</i>	49,4	101,4
<i>shu jumladan:</i>		
avtomobil transportida	49,4	101,4
Yuk aylanmasi, mln. tn-km	1 710,4	102,7
<i>shu jumladan:</i>		
avtomobil transportida	1 710,4	102,7

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportidagi yuk aylanmasi 2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan 103,0 foizga o'sdi va 778,6 mln. tn-km. ni tashkil qildi.


Buxoro viloyatining tuman, shaharlar bo'yicha tashilgan yuk bo'yicha yetakchi o'rinni Buxoro shahar (13 502,3 ming tonna) egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori tonnani Romitan (4 545,9 ming tonna), Qorako'l (375,1 ming tonna), Qorovulbozor (4 172,1 ming tonna) va G'ijduvon (5 164,0 ming tonna) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida yuk tashish, ming tonna
(2023 yil yanvar–sentabr)

	ming tonna	2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foizda	jamiga nisbatan ulushi, foizda
Viloyat jami	49 440,9	101,4	100,0
Buxoro sh.	13 502,3	102,5	27,3
Kogon sh.	2 882,3	95,1	5,8
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	3 149,1	100,3	6,4
Vobkent	2 259,0	101,6	4,6
Jondor	1 864,7	102,5	3,8
Kogon	3 343,4	100,3	6,8
Olot	1 314,2	100,6	2,7
Peshko'	2 026,4	101,2	4,1
Romitan	4 545,9	101,3	9,2
Shofirkon	1 842,4	101,4	3,7
Qorako'l	3 375,1	100,8	6,8
Qorovulbozor	4 172,1	106,1	8,4
G'ijduvon	5 164,0	100,7	10,4

Ko'rsatilgan yuk tashishda eng kichik tonna quyidagi hududlar Shofirkon (1 842,4 ming tonna) va Olot (1 314,2 ming tonna) hissasiga to'g'ri keldi.

**Tashilgan yukning umumiy hajmida hududlarning ulushi, foiz hisobida
(2023 yil yanvar-sentabr)**



Hududlar bo'yicha tashilgan yukning yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Buxoro (27,3 foiz) shahar egalladi. Shu bilan birga Romitan (9,2 foiz) va G'ijduvon (10,4 foiz) tumanlarida kuzatildi.


Viloyatning yuk aylanmasi hajmida yetakchi o'rinni G'ijduvon tumani (225 326,8 ming tonna-km) egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko'rsatkich bilan Qorovulbozor tumanida (365 320,7 ming tonna-km) va Buxoro (275 151,7 ming tonna-km) shahrida kuzatildi.

Hududlar kesimida yuk aylanmasi, ming tonna-km

	<i>ming tonna-km</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foizda</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foizda</i>
Viloyat jami	1 710 376,3	102,7	100,0
Buxoro sh.	275 151,7	102,9	16,1
Kogon sh.	111 969,7	116,3	6,6
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	139 785,9	102,2	8,2
Vobkent	88 981,6	102,7	5,2
Jondor	84 496,4	102,5	4,9
Kogon	130 774,1	102,9	7,6
Olot	29 352,0	102,9	1,7
Peshko'	29 898,0	101,9	1,7
Romitan	120 641,1	101,5	7,1
Shofirkon	62 403,1	103,3	3,6
Qorako'l	45 675,2	103,3	2,7
Qorovulbozor	365 320,7	99,3	21,4
G'ijduvon	225 926,8	102,8	13,2

Ko'rsatilgan yuk aylanmasidagi eng kichik tonna-km quyidagi Peshko' (29 898,0 ming tonna-km), Olot (29 352,0 ming tonna-km) va Qorako'l (45 675,2 ming tonna-km) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**Yuk aylanmasining umumiy hajmida hududlarning ulushi,
foiz hisobida (2023 yil yanvar-sentabr)**



Hududlar bo'yicha yuk aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Qorovulbozor (21,4 foiz) tumanri egalladi. Shu bilan birga Buxoro shahri (16,1 foiz), G'ijduvon (13,2 foiz) va Buxoro (8,2 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Yo'lovchi tashish. 2023 yil yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlari tomonidan 211,7 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,7 foizni tashkil etdi. Yo'lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 101,5 foizga teng bo'lib, 7 334,5 mln. yo'lovchi-km. ni tashkil qildi.

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

	<i>2023 yil yanvar-sentabr</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foizda</i>
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln.kishi	211,7	100,7
<i>shu jumladan: avtomobil transportida</i>	211,7	100,7
Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km	7 334,5	101,5
<i>shu jumladan: avtomobil transportida</i>	7 334,5	101,5

Jami avtomobil transportidagi yo'lovchi aylanmasi 2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan 101,5 foizni va 7 334,5 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil qildi. Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida yakka tartibdagi tadbirkorlar yo'lovchi aylanmasining ulushi 87,8 foizni tashkil etdi.


Viloyatning tuman, shaharlar bo'yicha tashilgan yo'lovchi bo'yicha yetakchi o'rinni Buxoro shahri (57 027,0 ming kishi) egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori ko'rsatkich bilan G'ijduvon (28 236,3 ming kishi) tumani, Buxoro (19 767,1 ming kishi) va Kogon (16 762,7 ming kishi) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida yo‘lovchi tashish, ming kishi
(2023 yil yanvar–sentabr)

	<i>ming kishi</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan foizda</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foizda</i>
Viloyat jami	211 689,8	100,7	100,0
Buxoro sh.	57 027,0	100,4	26,9
Kogon sh.	7 949,9	100,7	3,8
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	19 767,1	101,2	9,3
Vobkent	8 823,4	100,9	4,2
Jondor	14 943,0	100,3	7,1
Kogon	16 762,7	100,2	7,9
Olot	8 130,7	101,6	3,8
Peshko‘	3 473,6	100,3	1,6
Romitan	14 098,1	101,4	6,7
Shofirkon	12 273,6	100,8	5,8
Qorako‘l	7 347,5	100,9	3,5
Qorovulbozor	12 856,9	101,4	6,1
G‘ijduvon	28 236,3	100,5	13,3

Transportda tashilgan yo‘lovchilar soni bo‘yicha eng kichik ko‘rsatilgan quyidagi hududlar Peshko‘ (3 473,6 ming kishi), Qorako‘l (7 347,5 ming kishi) tumanlari va Kogon shahri (7 949,9 ming kishi) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Tashilgan yo‘lovchining umumiy hajmida hududlarning ulushi, foiz hisobida
(2023 yil yanvar-sentabr)



Hududlar bo‘yicha tashilgan yo‘lovchining yuqori ulushi bo‘yicha yetakchi o‘rinni Buxoro (26,9 foiz) shahri egalladi. Shu bilan birga G‘ijduvon (13,3 foiz), Buxoro (9,3 foiz) va Kogon (7,9 foiz) tumanlarida kuzatildi.


Viloyatning yo‘lovchi aylanmasi hajmida yetakchi o‘rinni Buxoro shahri (1 640 089,0 ming yo‘lovchi-km) egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko‘rsatkich bilan G‘ijduvon (1 013 321,4 ming yo‘lovchi-km), Kogon (592 405,7 ming yo‘lovchi-km) va Buxoro (775 651,8 ming yo‘lovchi-km) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida yo‘lovchi aylanmasi, ming yo‘lovchi-km

	<i>ming yo‘lovchi-km</i>	<i>2022 yil yanvar- sentabrga nisbatan, foizda</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foizda</i>
Viloyat jami	7 334 478,9	101,5	100,0
Buxoro sh.	1 640 089,0	102,4	22,3
Kogon sh.	225 955,7	100,0	3,1
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	775 651,8	100,4	10,6
Vobkent	505 082,7	100,5	6,9
Jondor	536 605,5	102,2	7,3
Kogon	592 405,7	101,6	8,1
Olot	254 885,5	101,2	3,5
Peshko‘	41 854,0	101,2	0,6
Romitan	508 311,9	101,8	6,9
Shofirkon	446 746,3	101,2	6,1
Qorako‘l	277 530,7	101,1	3,8
Qorovulbozor	516 038,7	101,5	7,0
G‘ijduvon	1 013 321,4	101,5	13,8


Ko‘rsatilgan yo‘lovchi aylanmasidagi eng kichik yo‘lovchi-km quyidagi hududlar Peshko‘ (41 854,0 ming yo‘lovchi-km), Olot (254 885,5 ming yo‘lovchi-km) tumanlari va Kogon shahri (225 955,7 ming yo‘lovchi-km) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida hududlarning ulushi,
foiz hisobida
(2023 yil yanvar-sentabr)**



Hududlar bo'yicha yo'lovchi aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Buxoro shahri (22,3 foiz) egalladi. Shu bilan birga G'ijduvon (13,8 foiz), Buxoro (10,6 foiz), Kogon (8,1 foiz) va Jondor (7,3 foiz) tumanlarida kuzatildi.

**Transport turlari bo'yicha yuk tashish, yuk aylanmasi,
yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi
(2023 yil yanvar-sentabr)**



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Umumiy foydalanishdagi avtomobil transporti – aholini va iqtisodiyotni barcha tarmoqlarining yo'lovchilar, bagajlar va yuklar, shu jumladan, pochталarni avtomobillarda tashishga bo'lgan ehtiyojlarini tijorat asosida ta'minlovchi transport.

Avtotransport vositalari – yo'lovchilar, bagajlar, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan avtomobillar, shatakchi-avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar.

Yo'lovchi avtomobili – o'zining tuzilishi va jihozlanishi jihatidan yo'lovchilar va bagajlarni tashishga mo'ljallangan, zarur qulaylik va xavfsizlik bilan ta'minlangan avtomobil.

Yuk avtomobili – yuklarni tashishga mo'ljallangan, qattiq ramali mexanik yo'l transporti vositasi; yuk avtotransporti vositalari foydalanish xarakteri va konstruktiv xususiyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy va ixtisoslashtirilgan vositalarga bo'linadi.

Avtobus, mikroavtobus – yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan va haydovchi o'rnini hisobga olmaganda sakkiztadan ortiq o'tirish o'rindig'iga ega bo'lgan, qattiq ramali mexanik yo'l transporti vositasi.

Yengil avtomobil – haydovchi o'rnini hisobga olmaganda, sig'imi sakkiz kishigacha bo'lgan yo'lovchi avtomobili. Yengil avtomobillar soniga pochta tashishga mo'ljallangan, sanitariya va boshqa maxsus yengil avtomobillar qo'shilmaydi.

Tashilgan yuklar (yuk tashish hajmi) – yuk avtomobillarida, shu jumladan avtotirkamalarda, tashilgan yuklar miqdori har bir qatnov uchun yukning tara yoki konteynerlar og'irligini hisobga olgan holdagi haqiqiy og'irligi bo'yicha aniqlanadi (tonnada o'lchanadi). Tashilgan yuk hajmini avtomobilning texnik tavsifnomasida ko'rsatilgan yuk ko'tarish qobiliyati bo'yicha aniqlash, faqatgina tashilgan yukning haqiqiy og'irligi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lmagan hollardagina amalga oshirilishi mumkin.

Yuk aylanmasi – transportning yuk tashish bo'yicha ish hajmi. O'lchov birligi tonna-kilometr hisoblanadi. Transportning yuk aylanmasi tashilayotgan yukning har bir jo'natmasi og'irligini uni tashish masofasiga ko'paytmasining yig'indisi orqali aniqlanadi.

Tashilgan yo'lovchilar – ma'lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo'yicha tashilgan yo'lovchilar soni (statistik kuzatuv birligi bo'lib yo'lovchiqatnovi hisoblanadi).

Yo'lovchi aylanmasi – transportning yo'lovchi tashish bo'yicha ish hajmi. O'lchov birligi yo'lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo'yicha yo'lovchilar sonini tashish masofasiga ko'paytmasini yig'indisi orqali aniqlanadi. Qatnov turlari va boshqa belgilar bo'yicha alohida hisoblanadi.

VII. ISTE'MOL BOZORI

2023 yil yanvar–sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 11 399,2 mlrd. soʻmni yoki 2022 yilning shu davriga nisbatan 104,7 foizni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 26,6 foizga koʻpayib, 884,1 mlrd. soʻmni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 7,8 foizni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tovar aylanmasi 2,0 foizga oʻsib, 3 266,6 mlrd. soʻmga etdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 28,7 foizni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmining 7 248,5 mlrd. soʻm yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning hisobiga toʻgʻri keldi 2022 yilning shu davriga nisbatan 3,8 foizga oshgan. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 63,5 foizga teng boʻldi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi
(2023 yil yanvar–sentabr)




Chakana savdo - tovarlarni yetkazib berishda ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga bo'lgan tovar harakati jarayonidagi xo'jalik aloqalarining so'nggi zanjiri bo'lib hisoblanadi. Chakana savdoda moddiy resurslar muomala jarayonidan jamoa, yakka xoldagi, shaxsiy iste'mol sohasiga o'tadi, ya'ni iste'molchilarning mulki bo'lib qoladi. Bu jarayon oldi-sotdi orqali amalga oshiriladi, chunki iste'molchilar o'zlariga zarur tovarlarni o'zlarining pul daraomadlariga almashishadi. Bunda ishlab chiqarish va muomala jarayonining yangi sikli uchun yangi imkoniyatlar mavjud bo'ladi, chunki ushbu xolatda tovarlar pulga avlanadi.

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Buxoro shahri 30,6 foizni, G'ijduvon tumani 17,0 foizni, Qorako'l tumani 8,6 foizni, Buxoro tumani 7,3 foizni va Jondor tumani 6,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, Olot tumani 3,2 foizni, Kogon tumani 2,6 foizni va Qorovulbozor tumani 1,7 foiz ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi

2023 yil yanvar-sentabr, foiz hisobida



2023 yil yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 26,6 foizga ko‘paydi. O‘z navbatida Buxoro shahri (147,6 foizni) va G‘ijduvon (146,2 foizni) tumanlarida eng yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etildi. Jondor (86,1 foiz) va Vobkent (88,1 foiz) tumanlarida past o‘shish sur‘atlari kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 452,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 4,0 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 4,0 foizni tashkil etdi. Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Buxoro shahri hisobiga to‘g‘ri keldi va 56,9 foizni tashkil etdi, Romitan tumani 9,2 foizni, G‘ijduvon tumani 8,5 foiz tashkil etgan bo‘lsa, Qorovulbozor tumanida 1,1 foizi va Shofirkon tumanida 1,6 foizi eng past ulush ko‘rsatkichni qayd etdi.

Chakana tovar aylanmasi hududlar kesimida
(avto savdosiz)


	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foizda</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foizda</i>
Viloyat bo‘yicha	11 399,2	104,7	5 636,7	103,0
Buxoro sh.	3 493,7	105,1	12 005,7	103,1
Kogon sh.	441,6	103,3	6 889,8	101,3
<i>tumanlar</i>				
Buxoro	833,2	101,7	4 731,2	100,0
Vobkent	417,0	102,4	2 839,0	100,7
Jondor	715,8	103,8	3 902,9	102,0
Kogon	291,4	106,1	3 498,5	103,9
Olot	366,6	114,2	3 545,8	112,5
Peshko‘	481	101,8	3 708,3	100,1
Romitan	703,6	103,1	4 693,6	101,2
Shofirkon	548,2	101,5	2 961,9	100,1

Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati


	Jami		Aholi jon boshiga	
	mlrd. so‘m	2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foizda	ming so‘m	2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foizda
Qorako‘l	975,3	111,1	5 720,1	109,6
Qorovulbozor	195,3	102,9	9 915,6	100,3
G‘ijduvon	1 936,4	104,4	6 066,5	102,6

Chakana savdo tovar aylanmasi (avto savdosiz) aholi jon boshiga 3,0 foizga ko‘payib, 5 636,7 ming so‘mni tashkil etdi (2022 yil yanvar-sentabr oylarida 4 948,6 ming so‘mni tashkil qilgan edi). O‘rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichlarni Buxoro shahri (12 005,7 ming so‘m), Qorovulbozor tumani (9 915,6 ming so‘m) va Kogon shahri (6 889,8 ming so‘m), eng past ko‘rsatkichlarni esa Kogon tumanida (3 498,5 ming so‘m), Vobkent tumanida (2 839,0 ming so‘m) va Shofirkon tumanida (2 961,9 ming so‘m) qayd etdi.

Umumiy ovqatlanish tovar aylanmasi, (mln.so‘mda)



Hududlarning umumiy ovqatlanishdagi ulushi, foizda




Ovqatlanish tashkilotlari tovar aylanmasi aholi jon boshiga 273,2 ming so‘mni tashkil etdi. O‘rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichlari Buxoro shahri (885,2 ming so‘m) va Qorovulbozor tumani (259,7 ming so‘m) kuzatildi.

2023 yil yanvar–sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 9 980,1 mlrd. so‘mni yoki 2022 yilning shu davriga nisbatan 106,4 foizni tashkil qildi.

Umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 90,6 foizni tashkil qildi, hajmi 2 947,3 mlrd. so‘mni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajimda katta ulushga ega bo‘lgan Buxoro shahri (44,0 foiz), Peshko‘ tumani (11,2 foiz), Vobkent tumanida (9,6 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Qorovulbozor tumani (0,6 foiz), Shofirkon tumanida (1,3 foiz) va Qorako‘l tumani (2,0 foiz) ulush bilan eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.

**Buxoro viloyati hududlarining ulgurji savdo tovar
aylanmasidagi ulushi, foizda**



- Buxoro sh.
- Kogon sh.
- Buxoro
- Vobkent
- Jondor
- Kogon
- Olot
- Peshko'
- Romitan
- Shofirkon
- Qorako'l
- Qorovulbozor
- G'ijduvon

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 14,8 foizga oshib, 7 032,8 mlrd. so‘mga va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 70,5 foizni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi hududlar kesimida

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foizda</i>
Viloyat bo‘yicha	9 980,1	100,0	106,4
Buxoro sh.	4 392,9	44,0	149,6
Kogon sh.	264,6	2,7	99,7

*Buxoro viloyatining
ijtimoiy-iqtisodiy holati*

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foizda</i>
Olot	212,7	2,1	9,1 m.
Buxoro	246,1	2,5	85,2
Vobkent	955,4	9,6	67,8
G‘ijduvon	751,0	7,6	65,2
Kogon	405,1	4,0	64,3
Qorako‘l	196,2	2,0	166,5
Qorovulbozor	59,6	0,6	101,1
Peshko‘	1 115,8	11,2	150,2
Romitan	555,2	5,5	98,8
Jondor	693,0	6,9	92,1
Shofirkon	132,5	1,3	30,0

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Chakana tovar aylanmasi – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochoyklari, kredit kartochoyklari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Umumiy ovqatlanish – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

Umumovqatlanish aylanmasi – joyida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – chakana savdo korxonalarini balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi – umumiy savdoda nisbiy ko'rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o'rtasidagi nisbat, ya'ni tovar aylanmasi tarkibi.

Ulgurji savdo – tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

Iste'mol tovarlari – yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar – ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.

VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2023 yilning yanvar-sentabr oylarida 894,6 mln.AQSH dollarini yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,8 foizni, shu jumladan, eksport 223,9 mln.AQSH dollarini, o'tgan yilga nisbatan 105,9 foizni, import 670,7 mln.AQSH dollarini, o'tgan yilga nisbatan 103,1 foizni tashkil etdi.


Tashqi savdo saldosi minus -446,8 mln. AQSH dollarni, shu jumladan MDH davlatlari bilan minus -272,9 mln.AQSH dollarni va boshqa davlatlar bilan minus -173,9 mln. AQSH dollarni tashkil etdi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)

	yanvar-sentabr		2022 yil yanvar- sentabrga nisbatan, foizda
	2022 yil	2023 yil	
Tashqi savdo aylanmasi	861,8	894,6	103,8
MDH mamlakatlari	494,0	505,2	102,3
boshqa xorij mamlakatlari	367,8	389,4	105,9
Eksport	211,5	223,9	105,9
MDH mamlakatlari	110,0	116,2	105,6
boshqa xorij mamlakatlari	101,5	107,7	106,2
Import	650,3	670,7	103,1
MDH mamlakatlari	384,0	389,0	101,3
boshqa xorij mamlakatlari	266,3	281,7	105,8
Saldo	-438,9	-446,8	x
MDH mamlakatlari	-274,0	-272,9	x
boshqa xorij mamlakatlari	-164,9	-173,9	x

So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo‘llab – quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori, hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi



Viloyatimiz rezidentlari tomonidan amalga oshirilgan tashqi savdo operatsiyalarida asosiy ulushlarni Osiyo (66,7 foiz), Yevropa (32,6 foiz) davlatlari egallamoqda va ularning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 99,3 foizni tashkil etmoqda.

Buxoro viloyatining 2023 yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasidagi ulushining 56,5 foizi MDH davlatlariga to‘g‘ri keladi qolgan, 43,5 foizi boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichlar 2022 yilda mos ravishda 57,3 foizi MDH davlatlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, qolgan 42,7 foizi boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keldi. Buxoro viloyatining MDH davlatlari bilan olib borilgan tashqi savdo aylanmasi 2023 yil yanvar-sentabr oylariga 505,2 mln. AQSH dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 foizga ko‘payish kuzatilgan. Shundan eksport 5,6 foizga ko‘paydi va import 1,3 foizga ko‘paygan.

Dunyodagi mamlakatlar orasida eksportda xamkor davlatlar Qozog‘iston, Rossiya, Afg‘oniston, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston hisoblanib, ularning jami eksportdagi ulushi 66,3 foizni tashkil qiladi, importda esa xamkor davlatlar Turkmaniston, Rossiya, Turkiya, Xitoy, Qozog‘iston davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 82,8 foizni tashkil qiladi.

MDH davlatlari orasida tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar Rossiya, Turkmaniston, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iziston davlatlari hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 96,5 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar orasida esa Eron, Turkiya, Xitoy, Germaniya, Afg‘oniston davlatlarining ulushi 71,6 foizni tashkil qildi.

Tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar
(2023 yil yanvar–sentabr)

(mln. AQSH dollari)

	<i>Eksport</i>	<i>Import</i>	<i>Tovar aylanmasidagi ulushi, foizda</i>
Rossiya	53,8	268,6	36,0
Afg‘oniston	42,6	0,2	4,8
Turkiya	18,1	37,7	6,2
Tojikiston	18,7	1,7	2,3
Qozog‘iston	15,2	41,3	6,3
Qirg‘iziston	14,1	3,4	2,0
Turkmaniston	8,2	63,4	8,0
Xitoy Xalq Respublikasi	11,7	144,2	17,4
Polsha	6,4	5,2	1,3
Germaniya	5,5	19,8	2,8
Eron Islom Respublikasi	3,2	27,0	3,4
Litva	1,1	12,2	1,5
Belorus	0,1	8,5	1,0

Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati

Viloyatning 2023 yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdoda eng asosiy hamkor davlatlari Rossiya (36,0 foiz), Turkmaniston (8,0 foiz), Xitoy (17,4 foiz), Qozog‘iston (6,3 foiz) hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi (67,7 foiz)ni tashkil qiladi.

MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi

(mln. AQSH dollari)

	<i>Eksport</i>		<i>Import</i>	
	<i>yanvar-sentabr</i>		<i>yanvar-sentabr</i>	
	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>
Jami	110,0	116,2	266,4	389,0

shu jumladan:

Ozarbayjon	1,7	3,2	2,5	0,8
Armaniston	0,01	0,1	-	0,01
Belorisiya	0,7	0,1	0,5	8,5
Qozog‘iston	17,5	15,2	62,4	41,3
Qirg‘iziston	19,6	14,1	1,3	3,4
Moldova	0,1	0,1	-	0,7
Rossiya	53,0	53,8	137,6	268,6
Tojikiston	6,8	18,7	3,9	1,7
Turkmaniston	6,5	8,2	169,7	63,4
Ukraina	4,1	2,7	1,6	0,6

Viloyatning eksport tarkibida barcha tovarlar va xizmatlar guruhlar bo'yicha o'sishi kuzatilmoqda. Kimyoviy vositalar mahsulotlari eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 foizga va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar 37,6 foizga o'sgan.

Import tarkibining umumiy hajmidan 45,9 foizni mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, 28,4 foizini mashinalar va transport asbob-uskunalar tashkil qiladi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida eksport-import tarkibi

(mln. AQSH dollari)

	2022 yil	2023 yil	2022 yil yanvar- sentabrga nisbatan, foizda
Eksport tarkibi	211,5	223,9	105,9
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	27,2	17,6	64,7
Ichimliklar va tamaki	1,3	2,5	192,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	19,2	8,5	44,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	36,7	50,5	137,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,0	0,0	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	6,9	7,1	102,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	103,9	105,7	101,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,0	3,5	3,5 m.
Turli xil tayyor buyumlar	6,4	13,0	2,0 m.

*Buxoro viloyatining
ijtimoiy-iqtisodiy holati*


	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>	<i>2022 yil yanvar- sentabrga nisbatan, foizda</i>
Xizmatlar	8,9	15,5	174,0
Import tarkibi	650,4	670,7	103,1
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	19	18,2	95,9
Ichimliklar va tamaki	0,3	0,1	25,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	26	20,4	78,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	291,8	308,3	105,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,7	0,8	114,9
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	66,7	76,8	115,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	52,7	44,1	83,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	176,1	190,9	108,4
Turli xil tayyor buyumlar	16,7	11,1	66,5
Xizmatlar	0,4	-	-

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2023 yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 56,5 foizni tashkil etib, hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,3 foizni tashkil qiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat


Boshqa xorijiy davlatlarning viloyatimiz tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023 yil yanvar- sentabr oylarida 43,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, o'tgan yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 42,7 foizga etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 foizga ko'paydi.

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi
(2023 yil; o'tgan yilga nisbatan, foiz)



2023 yil yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida o'tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida MDH amalga oshirilgan eksport tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)



Xizmatlar eksporti hajmi 15,5 mln.AQSH dollarini yoki eksport hajmining 6,9 foizni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 74,2 foizga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.


Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2023 yil yanvar-sentabr oylarida jami 41,5 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 13,1 mln.AQSH dollariga eksport qilindi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 39,2 foiz)ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, yanvar-sentabr oylarida 34,9 ming tonna sabzavotlar 9,5 mln.AQSH dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 6,6 ming tonna meva va rezavorlar 3,6 mln.AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,0 mln.AQSH dollariga kamaygan.

Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2023 yilning yanvar-sentabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 13,1 mln.AQSH dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 39,2 foizga kamaydi).

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi yanvar-sentabr oylari (ming t.)



**Viloyatda etishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport
geografiyasi**

<i>Davlat nomi</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabr</i>			<i>2023 yil yanvar- sentabr</i>		
	<i>ming tonna</i>	<i>mln AQSH dollari</i>	<i>ulushi, foiz</i>	<i>ming tonna</i>	<i>mln AQSH dollari</i>	<i>ulushi, foiz</i>
Qozog‘iston	47,4	13,0	60,5	32,5	6,6	50,4
Rossiya	3,8	3,4	15,8	3,6	3,6	27,5
Boshqa davlatlar	3,8	5,1	23,7	2,9	2,9	22,1


2023 yil yanvar-sentabr oylarida import hajmi 670,7 mln.AQSH dollariga (o‘sish sur‘ati 103,1 foiz) teng bo‘ldi. Import tarkibida eng katta ulush mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar (46,0 foiz) va Mashinalar va transport asbob-uskunalar (28,5 foiz) guruhlari hisobiga to‘g‘ri keladi.

Import tarkibi
(2023 yil yanvar-sentabr)


	<i>Mln.AQSH doll.</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foizda</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>
Import	670,7	103,1	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	18,2	95,9	2,7
Ichimliklar va tamaki	0,1	25,9	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	20,4	78,4	3,0
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	308,3	105,6	46,0
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,8	114,9	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	76,8	115,1	11,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	44,1	83,7	6,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	190,9	108,4	28,5
Turli xil tayyor buyumlar	11,1	66,5	1,7
Xizmatlar	-	0,5	-

**2023 yil yanvar-sentabr oylarida MDH va boshqa xorij davlatlari bilan
amalga oshirilgan import tarkibi, (foizda)**

MDH davlatlari



Boshqa xorij davlatlari



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar
- Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar
- Boshqalar

MDH va boshqa davlatlar bilan amalga oshirilgan import tarkibi


(2023 yil yanvar-sentabr)

	<i>MDH davlatlari</i>		<i>Boshqa davlatlar</i>	
	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>
Import	281,6	100,0	389,1	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,5	0,9	15,7	4,0
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,4	1,2	17,0	4,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,3	1,5	304,0	78,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,8	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	44,7	15,9	26,1	6,7
Sanoat tovarlar	83,2	29,5	19,2	4,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	133,0	47,2	5,7	1,5
Turli xil tayyor buyumlar	10,6	3,8	0,5	0,1

2023 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatimizga 60 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkmaniston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya, Qozog'iston va Eron hamkor davlatlaridan jami import hajmi 602,0 mln.AQSH.dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 89,8 foizni tashkil qiladi.

Mashina va uskunalar importi dinamikasi


(yanvar-sentabr oylari; mln.AQSH dollari)



Mashina va asbob uskunalar importining ortib borishi to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning o'zlashtirilishi, ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil qilinishi va modernizatsiya qilinishida o'z aksini topadi.

Tashqi savdo aylanmasining qit'alar bo'yicha tarkibi

(umumiy hajmga nisbatan, foiz hisobida)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Tovar – har qanday ko'chma mulk, shu jumladan valyuta va valyuta qimmatliklari, elektr, issiqlik va boshqa energiya turlari, transport vositalari (yo'lovchilar va tovarlar tashish uchun ishlatiladigan transport vositalari, shu jumladan konteynerlar va boshqa transport uskunalari bundan mustasno), intellektual mulk ob'ektlari.

Tovarlar eksporti – agar qonunchilikda boshqa tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

Reeksport – xorijiy tovarlar bojxona hududidan olib chiqiladigan bojxona rejimi.

Tovarlar importi – tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib chiqish majburiyatisiz olib kirish.

Reimport – bojxona hududidan eksport rejimida olib chiqilgan O'zbekiston Respublikasi tovarlari O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida ko'rsatilgan muddatda (olib chiqilgan paytdan boshlab o'n yil ichida) qaytarib olib kiriladigan rejim.

Tashqi savdo aylanmasi – mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

Tovarlar kelib chiqqan mamlakat – tovar to'liq ishlab chiqarilgan yoki etarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat (tovar etarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat “Bojxona tarifi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 26 - moddasiga asosan aniqlanadi).

Tovarlarning belgilangan manzili – yuklab jo'natish paytida tovar etkazib berilishi belgilangan mamlakat sifatida ma'lum bo'lgan mamlakat.

Tovarlarning statistik qiymati – shartnoma valyutasidan qat'iy nazar yagona bazisga keltirilgan shartnoma bo'yicha tovarlar qiymati.

SIF (qiymat, sug'urtalash, fraxt) – tovarlarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni sug'urtalash hamda import qiluvchi mamlakat portigacha etkazib berish xarajatlari kiritiladi.

SIP (fraxtG'tashish va sug'urtalash) – tovarlarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni sug'urtalash hamda import qiluvchi mamlakatning chegarasidagi belgilangan joygacha etkazib berish xarajatlari kiritiladi.

FOB (bortda erkin) – tovarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni kema bortigacha etkazib berish va yuklash xarajatlari kiritiladi.

DAF (chegaragacha etkazib berish) – tovarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni belgilangan joygacha yoki eksport qiluvchi mamlakat chegarasidagi joygacha yoxud qo'shni mamlakat chegarasigacha etkazib berish xarajatlari kiritiladi.

Xizmatlar (ishlar) eksporti — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

Xizmatlar (ishlar) importi — norezidentlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

IX. KICHIK TADBIRKORLIK


2023 yil 1 oktabr holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) ning soni 35 281 tani tashkil qildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,5 foizga o'sgan.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida 4 551 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 33,8 foizni tashkil etdi.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo (35,2 foiz), sanoat (14,5 foiz), qurilish (5,6 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (12,2 foiz), yashash va ovqatlanish (6,5 foiz) va boshqa tarmoqlarda tashkil etilgan.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi

(foizda)




**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar
va mikrofirmalar, birlikda**

	<i>yanvar-sentabr 2022 yil</i>	<i>yanvar-sentabr 2023 yil</i>
Buxoro viloyati	3 402	4 551
Buxoro sh.	814	884
Kogon sh.	115	213
<i>tumanlar</i>		
Buxoro	295	243
Vobkent	206	359
Jondor	285	347
Kogon	280	366
Olot	124	210
Peshko'	146	286
Romitan	317	453
Shofirkon	203	234
Qorako'l	184	423
Qorovulbozor	75	106
G'ijduvon	358	427

2023 yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Buxoro shahri (884 ta), G'ijduvon (427 ta), hamda Romitan (453 ta), Buxoro (243 ta), Jondor (347 ta), tumanlarida tashkil etildi. Kogon, Jondor, Vobkent tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Qorovulbozor (106 ta) tumanida tashkil etilgan.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foiz hisobida




2023 yil yanvar-sentabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Buxoro shahriga 19,5 foiz, Qorako'l tumani 9,3 foiz, Romitan tumani 10,0 foiz, Kogon tumani 8,0 foiz, Jondor tumani 7,6 foiz, G'ijduvon tumani 9,4 foiz, Vobkent tumani 7,9 foiz, Kogon shahri 4,7 foiz, eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 2,3 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	<i>yanvar-sentabr 2022 yil</i>	<i>yanvar-sentabr 2023 yil</i>
Jami	3 402	4 551
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	446	553
Sanoat	530	660
Qurilish	203	255
Savdo	1 099	1 393
Tashish va saqlash	470	623


	<i>yanvar-sentabr 2022 yil</i>	<i>yanvar- sentabr 2023 yil</i>
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	223	296
Axborot va aloqa	49	109
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	85	69
Boshqa turdagi xizmatlar	297	382

Yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (foiz hisobida)




2023 yil 1 oktabr holatida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 33,0 birlikda, Buxoro shahrida 24,7 birlikda, Kogon tumanida 19,5 birlikda, Romitan tumanida 17,0 birlikda, Buxoro tumanida 11,1 birlikda va Peshko' tumanida 12,2 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 12,0-9,2 birlik oralig'ida Jondor, Kogon shahar, Shofirkon va Olot tumanlarida aniqlandi. Qorako'l tumanida 8,6 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2023 yil 1 oktabr holatida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)



Agar, 2022 yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 14,7 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yil yanvar-sentabr oylarida bu ko'rsatkich 13,5 birlikka etdi va 2022 yilning shu davriga nisbatan 1,2 birlik past.

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda;)



2023 yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari tomonidan:

-sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmi 7 055,7 mlrd.so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 120,7 foizi) yoki 2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan fizik hajm indeksi 98,2 foizni tashkil qildi;

- 2 6261,0 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o'sish sur'ati 103,3 foizni (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 98,8 foizi) tashkil qildi;

- 10 882,5 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 58,1 foizi) o'zlashtirildi va 2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan o'sish sur'ati 138,1 foizini tashkil qildi;

- 5 756,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 85,0 foizi) bajarildi va 2022 yil yanvar- sentabrga nisbatan o'sish sur'ati 105,6 foizni tashkil qildi;

-avtomobil transporti yuk aylanmasining 102,6 foizni (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 76,0 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 101,6 foizni (umumiy yo'lovchi aylanmasining 98,1 foizi) tashkil qildi;

- 8 354,7 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmining 60,9 foizi) 2022 yil yanvar-sentabrga nisbatan o'sish sur'ati 107,8 foizini tashkil qildi;


-chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 92,2 foizi yoki 10 515,1 mlrd. so‘mi (o‘sish sur‘ati 103,2 foizni tashkil qildi) shakllantirildi.

- 99,3 mln.AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 44,3 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2022 yilning mos davriga nisbatan 27,8 mln.AQSH dollarga yoki 21,8 foizga kamaydi, mos ravishda 317,3 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 47,3 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi, bu esa 2022 yilning mos davriga nisbatan 32,2 mln.AQSH dollarga kamaydi.

**Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko‘rsatkichlari**

	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>	<i>(+-)</i>
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlik	29 399	27 489	-1 910
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlik	3 402	4 551	1 149
YAHM	foiz	74,6	73,1	-1,5
Sanoat	foiz	37,1	31,9	-5,2
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	foiz	98,9	98,8	-0,1
Investitsiya	foiz	44,9	58,1	13,2
Qurilish	foiz	82,9	85,0	2,1
Savdo	foiz	93,6	92,2	-1,4
Xizmatlar	foiz	61,7	60,9	-0,8
Yuk tashish	foiz	90,9	91,0	0,2
Yuk aylanmasi	foiz	76,1	76,0	-0,1
Yo‘lovchi tashish	foiz	97,0	97,1	0,1
Yo‘lovchi aylanmasi	foiz	98,0	98,1	0,1
Eksport	foiz	58,8	4,3	-14,5
Import	foiz	53,4	47,3	-6,1

**2023 yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida
kichik tadbirkorlik ulushining tuzilishi**



**2023 yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ishlar,
xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiy tadbirkorlikning
(fuqarolar mulki) ulushi**


	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, foizda</i>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	26 261,0	100,0
Sanoat	7 055,7	99,4
Qurilish	1 990,2	102,3
Chakana savdo	10 515,1	103,2

Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi

(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so'mda)


Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (1 201,0 mlrd.so'm), Qorovulbozor tumani (961,2 mlrd.so'm), Kogon tumani (777,2 mlrd.so'm) va G'ijduvon tumani (659,2 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Peshko' tumani (257,7 mlrd.so'm) va Olot tumanlarida (257,1 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Jondor (86,3 foiz), Shofirkon (83,4 foiz), Olot (82,7 foiz), Vobkent (77,1 foiz), Kogon (60,8 foiz) va Peshko' (55,4 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga Romitan (38,2 foiz) va Qorovulbozor (8,5 foiz) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi pastligi kuzatildi.

**2023 yil yanvar-sentabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, foiz**




Hududlar bo'yicha ko'proq qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi Jondor (3 360,6 mlrd.so'm), Buxoro (3 118,3 mlrd.so'm), G'ijduvon (2 874,7 mlrd.so'm), Qorako'l (2 631,7 mlrd.so'm) va Romitan (2 442,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Kogon (77,1 mlrd.so'm) va Buxoro shaharlarida (304,0 mlrd.so'm) va Qorovulbozor tumanida (734,4 mlrd.so'm) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi past bo'lib qolmoqda.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (2 981,0 mlrd.so'm), G'ijduvon (1 872,9 mlrd.so'm), Qorako'l (967,1 mlrd.so'm) va Buxoro (829,9 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Olot tumani (361,2 mlrd.so'm), Qorovulbozor (194,2 mlrd.so'm), Kogon (169,1 mlrd.so'm) tumanida chakana tovar aylanmasi hajmi past bo'lib qolmoqda.


2023 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Buxoro shahri (2105,1 mlrd.so'm), G'ijduvon (1385,0 mlrd.so'm), Jondor (582,5 mlrd.so'm), Buxoro (546,7 mlrd.so'm), Peshko' (529,6 mlrd.so'm) va Romitan (528,1 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati



2023 yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoqlardagi hududlar bo'yicha ulushi, foizda

	Sanoat	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Investitsiya	Qurilish	Chakana savdo	Xizmatlar
Buxoro viloyati	31,9	98,8	58,1	85,0	92,2	60,9
Buxoro sh.	52,5	98,5	50,2	82,5	85,3	40,0
Kogon sh.	50,7	99,3	65,6	69,5	98,2	68,1
tumanlar						
Buxoro	44,7	100,0	55,6	96,4	99,6	75,1

	<i>Sanoat</i>	<i>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</i>	<i>Investitsiya</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Chakana savdo</i>	<i>Xizmatlar</i>
Vobkent	77,1	99,8	80,3	100,0	98,8	60,3
Jondor	86,3	99,2	81,6	100,0	98,9	77,9
Kogon	60,8	97,7	57,8	88,5	58,0	76,2
Olot	82,7	99,7	39,3	74,5	98,5	82,1
Peshko‘	55,4	99,5	95,3	100,0	71,7	70,8
Romitan	38,2	94,9	14,5	65,4	99,3	66,8
Shofirkon	83,4	99,7	77,0	96,6	99,0	75,8
Qorako‘l	44,8	99,0	83,6	97,3	99,2	75,0
Qorovulbozor	8,5	94,4	67,0	41,0	99,4	66,5
G‘ijduvon	45,5	99,9	88,3	100,0	96,7	81,6

Hududlar bo‘yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Jondor (86,3 foiz), Shofirkon (83,4 foiz), Olot (82,7 foiz), Vobkent (77,1 foiz), Kogon (60,8 foiz) va Peshko‘ (55,4 foiz) tumanlarida tashkil etadi.


Investitsiyada eng yuqori ulushlarni Peshko‘ (95,3 foiz), G‘ijduvon (88,3 foiz), Qorako‘l (83,6 foiz), Jondor (81,6 foiz) va Vobkent (80,3 foiz) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Vobkent (100,0 foiz), Peshko‘ (100,0 foiz), Jondor (100,0 foiz), G‘ijduvon (100,0 foiz) va Qorako‘l tumanlari (97,3 foiz) tashkil etadi.

Chakana savdoda Buxoro (99,6 foiz), Qorovulbozor (99,4 foiz), Romitan (99,3 foiz) va Shofirkon (99,0 foiz) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Olot (82,1 foiz), G‘ijduvon (81,6 foiz) va Jondor (77,9 foiz) tumanlari tashkil etadi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2023 yil III-chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 1448 ta respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 37,3 foiz iqtisodiy vaziyatni qulay va 58 foiz esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida 38,1 foiz va 57,6 foiz, xizmatlar sohasida 35,6 foiz va 59,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 28,0 foiz va 63,6 foiz, sanoatda 30,0 foiz va 63,5 foizni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda 6,5 foiz, qurilishda 4,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 8,4 foiz, xizmatlarda 4,7 foiz va savdoda 4,3 foizni tashkil qildi.

**Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni baholash
2023 yil III -chorak uchun, foizda**



Iqtisodiy vaziyat yaqin uch oyda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yaxshilanish 44,9 foiz, o'zgarishsiz 54,2 foiz, yomonlashish 0,9 foiz, sanoat korxonalarida yaxshilanishi 48,2 foiz, o'zgarishsiz 50,0 foizi, yomonlashish 1,8 foiz, savdo yaxshilanishi 46,6 foiz, o'zgarishsiz 51,9 foiz, yomonlashish 1,5 foiz, xizmatlarda yaxshilanish 44,4 foiz, o'zgarishsiz 53,4 foiz, yomonlashish 2,2 foiz va qurilish sohasida yaxshilanish 47,9 foiz o'zgarishsiz 51,5 foizi, yomonlashish 0,6 foiz kutilmoqda.

**Kichik tadbirkorlik (biznes)da iqtisodiy vaziyatning o'zgarishlar
istiqlolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati sub`ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir. Tadbirkorlik faoliyati sub`ektlari (tadbirkorlik sub`ektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirishdir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik sub`ektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Korxonaning faoliyatini tahlil qilish – uning asosida korxonaning faoliyatini xar tomonlama o'rganish. Natijada, ma'lumot to'plashning ma'lum usullaridan foydalanish orqali korxonaning faoliyatini baholash va zaif tomonlarini aniqlash uchun kerakli ma'lumotlarni olish.

Chakana savdo – bu oxirgi foydalanuvchilarga tovarlar va xizmatlar sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat. Ulgurji savdo – bu katta miqdordagi tovarlarni sotishni o'z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat.

Tovarlarni realizatsiya qilish – mahsulotni samarali sotishga qaratilgan ishlab chiqaruvchi tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Reklama – bu xaridorlarning keng doirasi o'rtasida mahsulot to'g'risida ma'lumotni samarali tarqatish usuliga asoslangan reklama vositasining kommunikativ shakli.

Tavakkalchilik – kelajakda har qanday harakatlarni amalga oshirishda, qaror qabul qilishda mumkin bo'lgan yo'qotishlar.

Bozor – bu savdo operatsiyalarini amalga oshirish munosabati bilan turli shaxslar o'rtasida shakllanadigan munosabatlar tizimi.

**X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING
MOLIYAVIY NATIJALARI**

Foyda. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxonalar va tashkilotlar tomonidan 616 262,6 mln. so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganimizda foyda 917 537,7 mln.so'mga kaavgustgan yoki 67,2 foizni tashkil etdi.

**2023 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalari**

	<i>Foyda, zarar (-), mln. so'm</i>	<i>2022 yil yanvar-avgustga nisbatan, foizda</i>
Jami	616 262,6	67,2
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	-1 467,2	-
Ishlab chiqaradigan sanoat	355 804,0	61,4
Elektr, gaz, bug' bilan ta'min-lash va havoni konditsiyalash	53 251,1	65,4
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	45,3	123,0
Qurilish	3 944,0	71,5
Savdo	102 128,3	45,8
Ta'lim sohasidagi	69 866,0	48,5 m.
Tashish va saqlash	28 494,7	-
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 505,8	177,7
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	759,4	87,9
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	25,8	7,2
Boshqalar	1 905,4	112,2

2023 yil yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foydaning asosiy o'sishi "O'zbekneftgaz" AJ (230 580,2 mln.so'm), "O'zsanoatqurilish materiallari uyushmasi" (157 250,9 mln.so'm), "Uzbekistan Airports" AJ (22 164,9 mln.so'm) ga to'g'ri keladi.

Foydaning pasayishi. Yirik tijorat korxonalari tomonidan foydaning pasayishi kuzatildi. O'zbekiston to'qimachilik va tikuv trikotaj sanoati korxonalar uyushmasi 2 308,8 mln.so'mga to'g'ri keldi.

**2023 yil yanvar- avgust oylarida hududlar kesimida
yakuniy moliyaviy natijalari**

	<i>Foyda, zarar (-), mln. so'm</i>	<i>2022 yil yanvar-avgustga nisbatan, foizda</i>
Buxoro viloyati ¹⁾	616 262,6	67,2
Buxoro sh.	148 831,6	17,4 m.
Kogon sh.	1 714,7	127,8
<i>tumanlar</i>		
Buxoro	9 657,5	12,6
Vobkent	10 934,2	9,8
Jondor	296,8	-
Kogon	159 198,3	84,0
Olot	20,2	21,3
Peshko'	32 735,2	47,7
Romitan	15 569,7	2,7 m.
Shofirkon	489,9	65,5
Qorako'l	5 284,2	73,8
Qorovulbozor	232 951,5	52,9
G'ijduvon	-1 421,2	-

¹⁾ Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Qorovulbozor tumani 232 951,5 mln. so‘m, Kogon tumani 159 198,3 mln. so‘m, Buxoro shahri 148 831,6 mln. so‘m, Peshko‘tumani 32735,2 mln.so‘m va Romitan tumaniga 15 569,7 mln.so‘m to‘g‘ri keladi.

Zararlar. 2023 yil yanvar-avgust oylarida 16 ta korxonalar va tashkilotlar 69 067,2 mln. so‘m zararga yo‘l qo‘ydi. Zararning asosiy qismi O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv trikotaj sanoati korxonalar uyushmasi 7 944,3 mln. so‘m (jami zararning 11,5 foizi) va O‘zdonmahsulot AK 433,9 mln. so‘m (0,6 foiz) boshqa soha korxonalariga to‘g‘ri keladi.

2023 yil yanvar- avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar summasi</i>	
		<i>mln. so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan, foizda</i>
Jami	16	69 067,2	100,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	3	13 335,0	19,4
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘min-lash va havoni konditsiyalash	1	3 059,9	4,4
Qurilish	1	1 902,6	2,7
Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi,chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	2	48 615,3	70,4
Ta‘lim	3	37,7	0,0
Chakana va ulgurji savdo motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash	1	263,5	0,4
Boshqalar	5	1 853,2	2,7

Zararlarning asosiy qismi suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish 48 615,3 mln. so'm (jami zararning 70,4 foizi), ishlab chiqaradigan sanoat 13 335,0 mln. so'm (19,3 foiz), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 3 059,9 mln. so'm (4,4 foiz), qurilish 1 902,6 mln. so'm (2,8 foiz), boshqalar 2 154,4 mln. so'm (3,1 foiz) korxonalariga hissasiga to'g'ri keldi.

**2023 yil yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida zarar ko'rgan
korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar ko'rgan korxonalarning ulushi, foizda</i>	<i>Zarar summasi, mln. so'm</i>
Viloyat bo'yicha	16	100,0	69 067,2
Buxoro shahri	8	86,7	59 809,3
Kogon shahri	1	2,2	1 532,0
Jondor tumani	1	0,1	90,1
Kogon tumani	2	3,8	2 624,5
G'ijduvon tumani	3	7,2	4 987,3
Romitan tumani	1	0,0	24,0


**Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik
qarzdorligi holati¹⁾**

2023 yil 1 sentabr holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 2 946 179,2 mln. so'mni, shundan muddati o'tgan 13 160,7 mln. so'm yoki jami qarzdorlikning 0,4 foizini tashkil qiladi. Muddati o'tgan debitor qarzdorlik 2022 yil 1 sentabrga nisbatan solishtirganimizda 50,9 foizini tashkil qiladi.

¹⁾ Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalariga, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

2023 yil 1 sentabr holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi

(jamiga nisbatan, foizda)



Eng ko'p debitor qarzdorlik "O'zbekneftgaz" AJ korxonalari 876 857,1 mln. so'm (viloyat bo'yicha jami qarzdorlikdan 29,8 foiz), "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ 431 549,9 mln. so'm (14,6 foiz), O'zbekiston to'qimachilik va tikuv trikotaj uyushmasi 289 266,1 mln. so'm (9,8 foiz) kuzatilmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlari, hududlarda va idoralarda muddati o'tgan qarzdorlikni tugatish bo'yicha tizimli ishlar tashkillashtirilganligi natijasida muddati o'tgan debitor qarzdorlikning o'sish sur'ati kaavgustib bormoqda.


**2023 yil 1 sentabr holatiga hududlar kesimida
korxonalar va tashkilotlarning debitor qarzdorligi**

	Debitor qarzdorlik, mln. so‘m	shundan muddati o‘tgan	muddati o‘tgan qarzdorlik ulushi, foizda
Buxoro viloyati ¹⁾	2 946 179,2	13 160,7	0,4
Buxoro sh.	781 603,0	13 160,7	1,7
Kogon sh.	77 623,5	-	-
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	211 702,9	-	-
Vobkent	28 404,7	-	-
Jondor	27 987,8	-	-
Kogon	146 235,4	-	-
Olot	27 553,6	-	-
Peshko‘	126 844,9	-	-
Romitan	47 961,3	-	-
Shofirkon	24 108,5	-	-
Qorako‘l	156 676,5	-	-
Qorovulbozor	1 058 422,0	-	-
G‘ijduvon	231 055,0	-	-

¹⁾ Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalar, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz

2023 yil 1 sentabr holatiga vazirlik va idoralarning kreditor qarzdorligi

(jamiga nisbatan foizda)



Eng ko'p kreditor qarzdorlik "O'zbekneftgaz" AJ 2 285 141,7 mln.so'm (46,3 foiz), O'zbekiston to'qimachilik va tikuv trikotaj uyushmasi 684 658,5 mln.so'm (13,9 foiz), "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ 263 217,4 mln.so'm viloyat bo'yicha jami kreditor qarzdorlikdan 5,3 foiz) kuzatildi.

Hududlar kesimida kreditor qarzdorlikning asosiy qismi Qorovulbozor tumani (1 058 422 mln. so'm), Buxoro shahriga (781 603 mln. so'm) tumanlari va G'ijduvon tumani (231 055 mln. so'm) to'g'ri keladi.

Muddati o'tgan kreditorlik qarzdorliklar 0,8 mln. so'mni tashkil qiladi.


2023 yil 1 sentabr holatiga hududlar kesimida korxonalar va tashkilotlarning kreditor qarzdorligi

	Kreditor qarzdorlik, mln.so‘m	shundan muddati o‘tgani	Muddati o‘tgan qarzdorlik ulushi, foizda
Buxoro viloyati ¹⁾	4 933 532,7	0,8	-
Buxoro sh.	614 359,9	0,8	-
Kogon sh.	292 892,2	-	-
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	9 428,6	-	-
Vobkent	44 424,7	-	-
Jondor	26 993,5	-	-
Kogon	158 804,7	-	-
Olot	79 319,3	-	-
Peshko‘	84 507,0	-	-
Romitan	56 498,9	-	-
Shofirkon	206 853,4	-	-
Qorako‘l	51 505,8	-	-
Qorovulbozor	2 336 565,4	-	-
G‘ijduvon	971 379,3	-	-

¹⁾ Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalar, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

Alohida xo‘jalik boshqaruv organlarining debitor va kreditor qarzdorligi

mln. so‘m



Xo‘jalik boshqaruv organlarida jami kreditor qarzdorlikning debitorlik qarzdorlikka nisbatan quyidagi ma’lumotlar bilan tavsiflanadi:

	Kreditor qarzdorlikning debitorlikdan oshishi	
	mln. so‘m	Debitorga nisbatan, foizda
O'zbekneftgaz AJ	1 408 284,6	2,6 m.
"O‘zbekiston temir yo‘llari" AJ	63 841,5	5,7 m.
Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi	46 048,2	4,9 m.

Jami kreditor qarzdorlikning debitoridan oshishi O'zbekneftgaz AJ 1 408 284,6 mln. so‘mga (2,6 marta ko‘p), "O‘zbekiston temir yo‘llari" AJ 63 841,5 mln. so‘mga (5,7 marta ko‘p), Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi 46 048,2 mln. so‘mga (4,9 marta ko‘p) kuzatildi. Bu korxonaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta‘sir etishi mumkin.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Daromad (foyda) solig'i to'lagunga qadar foyda (zarar) – korxonada va tashkilotlarning barcha xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettiradigan yakuniy moliyaviy natija. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari), asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatning daromadlari va favqulodda foyda yig'indisidan davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlardan va favqulodda xarajatlardan chegirib tashlanadigan foydaning umumiy foydasini (zararini) ifodalaydi.

Debitorlik qarzlari – xaridorlar va buyurtmachilar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari, xodimlarga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar, budjet va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar, yig'imlar va sug'urta bo'yicha bo'nak to'lovlari, muassislarning ustav fondidagi ulushlari bo'yicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzlari va boshqa debitorlik qarzlari o'z ichiga oladi.

Kreditorlik qarzlari – yetkazib beruvchilar va pudratchilar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi, soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan avanslar, budjetga to'lovlar bo'yicha qarz, sug'urta bo'yicha qarz, davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz, ta'sischi'larga qarzlari, mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari va boshqa kreditorlik qarzlari o'z ichiga oladi.

Mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) – tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek, sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar qo'shimcha qiymat solig'i hamda aksiz solig'ini qo'shgan holda.


Muddati o'tgan qarzlari – qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda so'ndirilmagan qarzning umumiy summasi.

Aktiv – ma'lum bir sanadagi tashkilot aktivlari tarkibi va qiymatini aks ettiruvchi buxgalteriya balansi (chap tomon).

Passiv – korxonada mablag'lari (majburiyatlari va kapitali) shakllanishining barcha manbalari yig'indisining (o'ng tomoni) qarama-qarshi qismi.

XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (1 oktabr holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni (2023 yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	39 116 110,6 %
Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	31 067 94,2%
Yangi tashkil etilgan korxonalar (2023- yilda)	4 675 132,6 %

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023 yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

4 024



Oilaviy korxonona

107



Unitar korxonona

4 298



Xususiy korxonona

39




Aksiyadorlik jamiyati

196




Boshqa korxononalar

*mas'uliyati cheklangan jamiyat,
ming birlik*




*xususiy korxonona,
ming birlik*



**Korxonona va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 oktabr holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023 yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni
(yanvar-sentabr oylarida, ming birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi**
(2023 yil yanvar-sentabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2023 yilning yanvar-sentabr oylarida 4 675 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 3 710 ta, xususiy korxonalar 380 ta, oilaviy korxonalar 459 ta va boshqalar 126 tani tashkil etdi.

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan
korxonalar va tashkilotlar tarkibi**
(1 oktabr holatiga ko'ra)



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2023 yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 4 247 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,0 % ga kamaydi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 84,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,2%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 19,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,0%), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 0,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 4,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,4%) kamaydi.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2023 yil 1 oktabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 661 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 89,4 foizni tashkil etdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan 82,8 foizga (jami qurilishdagi ulushi 55,6 foiz), fuqarolik ob'ektlarini qurish 133,7 foizga (jami qurilishdagi ulushi 17,6 foiz), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 85,1 foizga (jami qurilishdagi ulushi 26,8 foiz) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

2023 yil 1 oktabr holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 9 398 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,0 foizni tashkil etdi. Jami savdo korxonalarini va tashkilotlarini soni ko'payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 94,7 foizga (jami savdodagi ulushi 62,0 foiz), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 104,6 foizga (jami savdodagi ulushi 26,5 foiz), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan 112,4 foizga (jami savdodagi ulushi 11,5 foiz) tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2023 yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2023 yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

2023- yil 1 oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2 213 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 88,4 % ga tashkil etdi. Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 88,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,1 %), yashash bo'yicha xizmatlarning 90,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 16,9 %) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni**
(1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2023 yil 1 oktabr holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 351 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,8 foizni tashkil qildi. Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino video-filmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 61,5 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,3 foiz), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 82,3 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 14,5 foiz), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 110,4 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 15,1 foiz), dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar 100,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 0,9 foiz), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 110,9 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 43,3 foiz), telekommunikatsiya xizmatlarining 112,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 23,9 foiz) o'sgan.

Oilaviy korxonalar soni

(1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 4 024 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 250 taga yoki 106,6% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 058 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 349 taga yoki 10,2% ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 459 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109 taga yoki 131,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023 yil 1 oktabr holatiga ko'ra 26 796 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 3 360 taga yoki 114,3 foizga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 21 308 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 704 ga yoki 96,8 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023 yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 710 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 913 taga yoki 132,6 foizga oshgan.




**Buxoro viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni**
(2023 yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 424 tani tashkil etib, ulardan 297 tasi yoki 70,0 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 81 taga yoki 21,4 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 27 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlatlar kesimida soni

(2023 yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


	2019 y.	2020 y.	2022 y.	2023 y.	2023 y.
Jami	251	285	224	378	297
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19	21	30	33	16
sanoat	110	122	130	141	113
qurilish	25	28	32	31	25
savdo	52	60	72	102	91
tashish va saqlash	5	6	5	8	10
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	18	21	23	26	18
axborot va aloqa	1	1	1	5	3
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	5	7	7	4
boshqa turlar	17	21	22	25	17

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2023 yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Buxoro viloyati	297	167	130
Buxoro shahri	157	77	80
Kogon shahri	13	9	4
<i>tumanlar</i>			
Olot	3	1	2
Buxoro	27	21	6
Vobkent	5	3	2
G'ijduvon	12	9	3
Kogon	24	15	9
Qorako'l	11	6	5
Qorovulbozor	4	2	2
Peshko'	10	3	7
Romitan	14	10	4
Jondor	8	5	3
Shofirkon	9	6	3

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarinig qo‘shma
korxonalar va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2023 yil 1 oktabr holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi % da)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Buxoro shahrida 157 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 52,9 %), Kogon tumani 24 ta (8,1 %), Peshko‘ tumani 10 tani (3,4 %), Kogon shahar 13 ta (4,4 %), Buxoro tumani 27 ta (9,1 %), hamda Jondor tumanlarida 8 tani (2,7%) tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni
(2023 yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni
(2023 yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



2023- yilning yanvar- sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (9,8%), G'ijduvon (21,4%), Buxoro (3,5%), Romitan (2,6%), Peshko' (2,4%), Kogon (4,8%), Jondor (0,6 %), Vobkent (10,0%), Shofirkon (3,2%), Qorako'l (15,3%), Olot (15,3%), Qorovulbozor (1,3%) tumanlari va Kogon shahar (9,8%), ulushiga tegishli.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashkari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan- ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Faoliyati tugatilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan yuridik shaxslarning davlat reyestriga yuridik shaxsni tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilgandan so'ng bu haqda davlat statistika organlariga ma'lumot taqdim etilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Yuridik shaxslarning yangi tashkil etilganlik darajasi – ma'lum bir davr oralig'ida tashkil etilgan yuridik shaxslarning jami faoliyat ko'rsatayotan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

XII. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yil 1 oktabr holatiga viloyatda doimiy aholi soni 2 034,8 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 25,1 ming kishiga yoki 1,2 foizga ko'paydi.

Buxoro viloyatining doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot

(2023 yil 1 oktabr holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foiz		
	Jami	shu jumladan:		Jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Buxoro viloyati	2 034,8	750,7	1 284,1	101,2	101,4	101,2
Buxoro sh.	292,9	267,9	25,0	101,3	101,4	100,4
Kogon sh.	64,4	64,4	-	101,0	101,0	-
<i>tumanlar</i>						
Buxoro	177,4	40,5	136,9	101,4	101,3	101,5
Vobkent	148,0	28,7	119,3	101,5	101,8	101,4
Jondor	184,5	35,5	149,0	101,2	101,4	101,2
Kogon	84,0	6,3	77,7	101,7	101,6	101,7
Olot	104,0	39,3	64,7	101,2	100,8	100,9
Peshko'	130,4	16,7	113,7	101,2	101,2	101,2
Romitan	150,8	37,8	113,0	101,3	102,2	101,2
Shofirkon	186,0	43,1	142,9	100,9	101,2	100,8
Qorako'l	171,3	65,9	105,4	100,9	101,4	100,8
Qorovulbozor	19,8	11,3	8,5	101,5	101,8	101,2
G'ijduvon	321,3	93,3	228,0	101,3	101,5	101,2


Doimiy aholi sonida erkak va ayollar to'g'risida ma'lumot
(2023 yil 1 oktabr holatiga)

	<i>Doimiy aholi soni, ming kishi</i>		
	<i>Jami</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>erkak</i>	<i>ayol</i>
Buxoro viloyati	2 034,8	1 020,3	1 014,5
Buxoro sh.	292,9	145,4	147,5
Kogon sh.	64,4	31,3	33,1
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	177,4	88,9	88,5
Vobkent	148,0	74,5	73,5
Jondor	184,5	91,5	93,0
Kogon	84,0	41,8	42,2
Olot	104,0	52,1	51,9
Peshko'	130,4	65,4	65,0
Romitan	150,8	76,5	74,3
Shofirkon	186,0	93,9	92,1
Qorako'l	171,3	84,8	86,5
Qorovulbozor	19,8	9,9	9,9
G'ijduvon	321,3	164,3	157,0

2023 yil 1 oktabr holatiga Buxoro viloyatining shahar va tumanlar kesimida eng ko'p aholi soni G'ijduvon tumanida 321,3 ming kishini (viloyat aholi sonidagi ulushi 15,8 foiz), Buxoro shahrida 292,9 ming kishini (14,4 foiz), Shofirkon tumanida 186,0 ming kishini (9,1 foiz) va Jondor tumanida 184,5 ming kishini (9,1 foiz) tashkil etdi.

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o‘shish sur‘ati

(2023 yil 1 oktabr holatiga, foizda)



Hududlar bo‘yicha 2023- yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan aholi sonining eng yuqori o‘shishi Kogon tumanida (1,7 foiz), Qorovulbozor tumanida (1,5 foiz), Vobkent tumanida (1,5 foiz) va Buxoro tumanida (1,4 foiz) kuzatildi.


Aholi soni to'g'risida ma'lumot

(2023 yil, 1-yanvar kishi)

	<i>Jami aholi soni</i>	<i>shundan:</i>			
		<i>0-2 yosh</i>	<i>3-6 yosh</i>	<i>7-16 yosh</i>	<i>0-16 yosh</i>
Buxoro viloyati	2 009,7	128,1	152,8	338,0	618,9
Buxoro sh.	289,2	17,6	18,1	46,0	81,7
Kogon sh.	63,7	4,0	4,1	10,5	18,6
<i>tumanlar</i>					
Olot	102,8	6,3	8,1	17,5	31,9
Buxoro	174,9	9,9	12,5	28,8	51,2
Vobkent	145,8	9,4	11,4	23,7	44,5
G'ijduvon	317,1	21,6	25,5	56,1	103,2
Kogon	82,6	5,2	6,8	14,2	26,2
Qorako'l	169,7	11,2	13,7	29,4	54,3
Qorovulbozor	19,5	1,3	1,4	3,0	5,7
Peshko'	128,9	8,4	10,6	22,2	41,2
Romitan	148,9	9,8	12,0	24,6	46,4
Jondor	182,3	11,5	14,6	32,1	58,2
Shofirkon	184,3	11,9	14,0	29,9	55,8

Doimiy aholi sonining asosiy yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi

(2023 yil 1 yanvar; jamiga nisbatan foizda)




2023 yil yanvar-sentabr oylarida tug'ilish, nikoh va
nikohdan ajralishlar

	kishi			har 1000 kishiga	
	2022 yil	2023 yil ¹⁾	o'sish, kamayish	2022 yil	2023 yil
Tug'ilganlar	32 650	34 170	1 520	22,0	22,6
O'lganlar	6 956	6 548	-408	4,7	4,3
Tabiiy o'sish	25 694	27 622	1 928	17,3	18,3
Nikohlar	10 923	10 232	-691	7,3	6,8
Ajralishlar	1 986	1 881	-105	1,3	1,2

¹⁾ dastlabki ma'lumot

2023 yil yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar

(har 1000 kishiga)




Doimiy aholi soni

(2023 yil 1 oktabr holatiga, ming kishi)



Tug‘ilish. 2023 yil yanvar-sentabr oylarida tug‘ilganlar soni 34 170 kishini (bu erda va bundan keyin tug‘ilganlar sifatida faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (32 650 kishi) nisbatan 1 520 taga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 22,6 promilleni tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (22,0 promille) nisbatan 0,6 promillega ko‘paydi.

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti
(2023 yil yanvar – sentabr)



Ma'lumot uchun:

2023 yil davomida eng ko'p tug'ilish avgust oyida, ya'ni 4 802 kishi qayd etilganligi kuzatildi

Tug‘ilish koeffitsientining sezilarli darajada o‘shishi Kogon (16,0 promilledan 25,0 promillega) va Buxoro (16,5 promilledan 21,1 promillega) tumanlarida qayd etildi.

Ma'lumot uchun:

Oxirgi 3 yillikda Buxoro viloyatida eng yuqori tug'ilish 2022 yilda, ya'ni 45,1 ming bola, 2021 yilda, ya'ni 43,2 ming bola, aksincha eng past - 2020 yilda, ya'ni 41,5 ming bola qayd etilgani kuzatildi.


O'lim darajasi. 2023 yil yanvar-sentabr oylarida o'lganlar soni 6 548 kishini tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (6 956 kishi) nisbatan 408 taga kamaydi. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 4,3 promilleni tashkil qildi (2022 yil yanvar-sentabrda 4,7 promille).

Ma'lumot uchun:

2023 yil davomi eng ko'p o'lim may oyida, ya'ni 875 kishi qayd etilgani kuzatildi.

Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsienti


(2023 yil yanvar – sentabr)



O'lim sonining kamayganligi barcha tumanlarida kuzatildi. Ro'yxatga olingan jami o'lganlarning 65,4 foiz qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,3 foiz o'simtalardan, 4,8 foiz baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,2 foiz ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,7 foiz nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,0 foiz yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 10,6 foiz boshqa kasalliklardan vafot etgan.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida o'lganlarning asosiy o'lim sababi bo'yicha taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan foizda)



Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6 029 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 8 517 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 2 488 kishiga (2022 yilning shu davrida minus 2 251 kishi) teng bo'ldi.

Migratsiya saldosing yuqori darajasi G'ijduvon tumani (minus 0,7), Shofirkon tumani (minus 0,5) hamda Qorako'l (minus 0,5) tumanida qayd etildi. Migratsiya saldosini ijobiy darajasi Buxoro (plyus 0,3) va Kogon (plyus 0,1) tumanlarida kuzatildi.

Aholi migratsiyasi
(yanvar-sentabr, kishi)

	<i>Kelish</i>		<i>Ketish</i>		<i>Migratsiya saldos</i>	
	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>
Buxoro viloyati	4 754	6 029	7 005	8 517	-2 251	-2 488
Buxoro sh.	1 190	1 800	1 719	2 060	-529	-260
Kogon sh.	384	400	337	409	47	-9
<i>tumanlar</i>						
Buxoro	774	1020	562	760	212	260
Vobkent	205	219	451	507	-246	-288
Jondor	163	192	367	471	-204	-279
Kogon	553	633	345	524	208	109
Olot	101	103	273	323	-172	-220
Peshko‘	138	158	230	310	-92	-152
Romitan	177	316	279	317	-102	-1
Shofirkon	277	309	694	841	-417	-532
Qorako‘l	115	124	575	606	-460	-482
Qorovulbozor	198	265	136	186	62	79
G‘ijduvon	479	490	1 037	1 203	-558	-713

Nikohlar. 2023 yil yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlarida 10 232 ta nikohlar olingan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan 6,8 ta nikoh tuzish (2022 yilning tegishli davrida 7,3 ta) koeffitsienti 0,5 promillega kamaydi.


Ma'lumot uchun:

2023 yil davomida eng ko'p nikoh avgust oyida, ya'ni 1 612 ming birlik qayd etilgani kuzatildi

Nikoh tuzish koeffitsientining o'sishi Kogon tumanida (6,1 promilidan 6,9 promillega) kuzatildi.

Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti¹⁾

(yanvar-sentabr)




Nikohdan ajralishlar. 2023 yil yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1 881 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan 1,2 ta nikohdan ajralishlar (2022 yilning tegishli davrida 1,3 ta) nisbatan 0,1 kamaydi. Nikohdan ajralish koeffitsientining sezilarli darajada o'sishi Kogon tumanida (1,5 dan 1,9 promillega) kuzatildi.

Ma'lumot uchun:

2023 yil davomida eng ko'p nikohdan ajralish yanvar oyida, ya'ni 256 birlik qayd etilgani kuzatildi.

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
(yanvar-sentabr)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni meyoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda - qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash - oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 ta aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti - hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti - hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan ko'chib kelishni statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududdan uning tashqarisiga ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatdan chiqarishda tuziladigan ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) - hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.


XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi¹⁾ 2023 yil sentabr oyida 4 033,3 ming so‘mni tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 17,8 foizga o‘ydi.

Yanvar – sentabr oylarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o‘shishi iqtisodiy faoliyat turlarining axborot va aloqa sohasida (190,6 foizga), savdo sohasida (133,3 foizga), tashish va saqlashda sohasida (131,4 foizga) kuzatildi.

O‘rtacha ish haqining yuqori miqdori iqtisodiy faoliyat turlarining bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida 9 936,9 ming so‘m (viloyat bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,0 marta ko‘p), axborot va aloqa sohasida 7 977,7 ming so‘m (2,0 marta ko‘p), tashish va saqlashda 6 669,0 ming so‘m (176,2 foizga), savdo sohasida 4 702,0 ming so‘m (124,2 foizga) kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik
nominal hisoblangan ish haqi
(2023 yil yanvar-sentabr)



¹⁾ Bu yerda va keyingi o'rinlarda dastlabki ma'lumotlar, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, qayta hisoblangan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha
oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(qishloq xo'jalikligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

(ming so'm)

	<i>Yanvar-sentabr</i>		<i>Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, foiz</i>	
	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>
Jami viloyat bo'yicha	3 201,4	3 785,8	x	x
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	3 968,8	4 520,5	124,0	119,4
Qurilish	3 380,5	4 325,9	105,6	114,3
Savdo	3 527,2	4 702,0	110,2	124,2
Tashish va saqlash	5 073,8	6 669,0	158,5	176,2
Axborot va aloqa	4 185,4	7 977,7	130,7	210,7
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	8 404,6	9 936,9	262,5	262,5
Ta'lim	2 434,3	2 846,0	76,0	75,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy hizmatlar ko'rsatish	2 531,5	3 048,2	79,1	80,5
Boshqa faoliyat turlari	3 530,3	4 092,3	110,3	108,1



Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 846,0 ming so'mni tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 2 434,3 foizga o'sdi.

Ta'lim sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini Viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Buxoro shahrida 4 167,7 ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (146,4 foiz), Qorovulbozor tumanida 3 259,4 ming so'mni (114,5 foiz) tashkil etgan bo'lsa, Kogon tumanida 2 282,3 ming so'mni (80,2 foiz), Vobkent tumanida 2 210,7 ming so'mni (77,7 foiz), Peshko' tumanida 2 192,4 ming so'mni (77,0 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 520,5 ming so'mni tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 3 968,8 foizga ko'paydi.

Sanoat sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Buxoro tumanida 17 216,8 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 3,0 marta ko'p), Kogon tumanida 7 973,1 ming so'mni (176,3 foiz) va Qorovulbozor tumanida 7 482,3 ming so'mni (165,5 foiz) tashkil etgan bo'lsa, Romitan tumanida 2 476,0 ming so'mni (54,8 foiz), Shofirkon tumanida 2 460,2 ming so'mni (54,4 foiz), va Vobkent tumanida 1 769,8 ming so'mni (39,2 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 325,9 ming so'mni, 2022 yilning mos davriga nisbatan 3 380,5 foizni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Olot tumanida 5 932,1 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 137,1 foiz) bo'lsa, Vobkent tumani 5 251,8 ming so'mni (121,4 foiz) tashkil etgan bo'lsa, Buxoro tumanida 2 800,9 ming so'mni (64,7 foiz), Shofirkon tumanida 2 142,5 ming so'mni (49,5 foiz) boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida

ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 048,2 ming soʻmni tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 2 531,5 foizni tashkil etdi.

Mazkur sohalaridagi oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi koʻrsatkichini viloyat hududlari boʻyicha koʻradigan boʻlsak, yaʼni oʻrtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Olot tumani 3 627,2 ming soʻmni (119,0 foiz), Peshkoʻ tumanida 3 572,5 ming soʻmni (viloyatdagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan 117,2 foiz), Qorovulbozor tumani 3 369,8 ming soʻmni (110,6 foiz) tashkil etgan boʻlsa, Kogon tumanida 2 553,1 ming soʻmni (83,8 foiz), Qorakoʻl tumanida 2 477,8 ming soʻmni (81,3 foiz), Vobkent tumanida 2 436,1 ming soʻmni (80,0 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega boʻlmoqda.



Bank, sugʻurta, lizing, kredit va vositachilik sohasida

ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 9 936,9 ming soʻmni tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 8 404,6 foizga oʻsdi.



Oʻrtacha oylik ish haqi koʻrsatkichini viloyat hududlari

boʻyicha koʻradigan boʻlsak, eng yuqori miqdori Qorovulbozor tumanida 5 836,4 ming soʻmni viloyatdagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan (154,2 foiz), Kogon shahrida 5 698,2 ming soʻmni (150,5 foiz), Buxoro shahrida 4 438,8 ming soʻmni (117,2 foiz) etgan boʻlsa, Shofirkon tumanida 2 663,3 ming soʻmni (70,3 foiz), Qorakoʻl tumanida 2 648,0 ming soʻmni (69,9 foiz), Vobkent tumanida 2 577,7 ming soʻmni (68,1 foiz) tashkil etib boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega boʻlmoqda.

Oʻrtacha oylik ish haqining eng past koʻrsatkichlari Qorakoʻl (2 648,0 ming soʻm) va Vobkent (2 577,7 ming soʻm) tumanlarida kuzatildi. Bu tumanlarda oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi koʻrsatkichlari viloyatdagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan mos ravishda kam boʻlgan.

Buxoro viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo'jalikligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

(ming so'm)

	<i>Yanvar- sentabr</i>		<i>Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, foiz</i>	
	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>
Buxoro viloyati	3 201,4	3 785,8	x	x
Buxoro sh.	3 717,7	4 438,8	116,1	117,2
Kogon sh.	4 729,7	5 698,2	147,7	150,5
<i>tumanlar</i>				
Buxoro	2 270,1	3 018,4	70,9	79,7
Vobkent	2 236,4	2 577,7	69,9	68,1
Jondor	2 474,2	2 789,2	77,3	73,7
Kogon	2 525,3	3 387,2	78,9	89,5
Olot	2 624,9	3 198,7	82,0	84,5
Peshko'	2 545,7	2 820,4	79,5	74,5
Romitan	2 949,3	3 256,4	92,1	86,0
Shofirkon	2 446,5	2 663,3	76,4	70,3
Qorako'l	2 360,0	2 648,0	73,7	69,9
Qorovulbozor	4 803,5	5 836,4	150,0	154,2
G'ijduvon	2 457,6	2 811,3	76,8	74,3

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqti- korxonada yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

Ish haqi- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.

**BUXORO VILOYATINING
IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINING
ASOSIY KO‘RSATKICHLARI**

2023 yil yanvar-sentabr

*Nashrga mas’ul:
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig‘ma-axborot tahliliy ishlar bo‘limi*

Tel: (65)223-72-59

Buyurtma raqami № 126 27.10.2023 y.

Tiraj 10 nusxa

Buxoro viloyati statistika boshqarmasi
Buxoro sh., S. Ayni ko‘chasi, 3